

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I. BOB. TARJIMA JARAYONI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	
1.1. Tarjima va uning turlari	5
1.2. Tarjima jarayonida uchraydigan muammolar.....	17
II. BOB. HEDLI CHEYZNING “SEYFDAGI PULLAR” ASARI TARJIMASIDAGI GRAMMATIK QIYINCHILIKLAR TAHLILI	
2.1. Hedli Cheyz asarlaridagi o'ziga xos xususiyatlar.....	28
2.2. “Seyfdagi pullar” asari tarjimasidagi grammatik muammolar.....	36
XULOSA.....	48
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	51

Kirish

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini qo'lga kiritgach, barcha sohalarda bo'lgani kabi yurtimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlar rivojiga ham alohida e'tibor berila boshlandi. Mamlakatimiz Prezidenti Mirziyoyev Shavkat Miromonovichning 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-son qaroriga muvofiq, ta'lim tizimiga chetdan malakali professor o'qituvchilarni jalb etish, o'zimizdagi o'qituvchilarni malaka oshirish uchun xorijiy davlatlarga jo'natish hamda eng asosiy jihatlardan biri, xorijiy davlat adabiyotlarini tarjima qilish va ularni mamalakatimiz yoshlariga o'qitish masalasi ilgari surildi¹. Shuningdek, "Yuksak ma'naviyatsiz kelajak yo'q" degan edi O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov o'z nutqlaridan birida.² Ma'naviy barkamollik asosi hisoblangan ta'lim va tarbiya ishlariga hozirgi kunda alohida ahamiyat berilmoqdaki bu masala hozirgi kunda davlat siyosati darajasigacha o'sib yetdi. "Kadrlar tayyorlashning milliy dasturida" ham xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan e'tiborni kuchayganligi va xalqlar orasidagi munosabatlarni, adabiy aloqalarni tarjimachilik orqali amalga oshirish zarurligi ham ta'kidlab o'tilgan.³ Xorijiy tillarni bilishning afzalligi shundaki, bugungi dunyo mamlakatlarini turli sohalardagi globallashuvi jarayonida inson o'zi istagan mamlakatlar bilan turli xil kommunikatsiya tizimlari orqali bog'lanishi, axborot olishi, qolaversa shu mamlakat vakillari bilan jonli muloqatda bo'lishi mumkin. Respublikamizning Mustaqillikka erishuvi tarixda ilm-fanning buyuk allomalarini, o'zbek nomini butun dunyoga tanitgan yurtida ana shunday ilm- ma'rifatning rivojiga, ta'lim - tarbiyaning buyuk kelajagi davlat uchun mustahkam poydevor bo'lishiga imkonlar yaratdi. Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq ta'lim - tarbiya, ma'naviy - ma'rifat ishlar davlatimizning siyosatining ustivor yo'nalishiga aylandi. Ta'lim - tarbiya ishlari har doim jamiyat

¹ Shavkat Mirziyoyev "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi PQ-2909-son qarori. 2017.

² Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat. 2008.

³ "Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi" qonuni, 1997-yil, 29-avgust.

rivojining asosiy omili bo'lgan va shunday bo'lib qoladi. Bu tarixdagi isbot talab qilinmaydigan hodisa.⁴

Mavzuning dolzarbligi. Tarjima inson ma'naviy hayotini boyitadi, ona tilining imkoniyatlarini ro'yobga chiqaradi, uni serjilo qiladi. Shuning uchun hozirgi paytda lingvistikaning eng dolzarb muammolaridan biri tarjimadir.

Bitiruv malakaviy ish mavzusini tanlar ekanmiz, o'z oldimizga ingliz tilidan bevosita va bilvosita o'zbek tiliga tarjima qilingan badiiy asarlarni, xususan, Jeyms Hedli Cheyzning "Seyfdagi pullar" asari misolida tarjimada uchraydigan ba'zi muammolarni har tomonlama ko'rib chiqish, tahlil qilish, zarur hollarda ma'lum bir xulosa keltirish, ularni amaliyotga tadbqiq qilishdagi muammolarni imkon qadar yechishni maqsad qilib qo'ydik.

Masalaning dolzarbligi shundaki, tarjima jarayonida bir tildagi til birliklarini ikkinchi bir tildagi teng qiymatli til birliklariga almashtirish yoki ikkinchi tildagi muqobil variantni berish zarur, aks holda tarjima g'aliz chiqishi mumkin. Albatta tarjimonlik amaliyotidan kelib chiqib shuni ta'kidlash lozimki, har bir tarjimon badiiy asar mohiyatini o'ziga xos tushunadi va shu yo'sinda tarjimani amalga oshiradi.

Bitiruv malakaviy ishining asosiy obyekti va predmeti. Tadqiqot obyekti qilib, Hedli Cheyzning detektiv asarlari, asosan, "Seyfdagi pullar" asari olindi. Tarjima turlari va ingliz adabiyotidagi asarlarni o'zbek tiliga tarjima qilish davomida yuzaga keladigan grammatik muammolar – uning predmetidir.

Ishning maqsad va vazifalari. Mazkur bitiruv malakaviy ishini yozishdan maqsad, tarjima turlari va ulardagi muammolar hamda tarjima qilish davomida yuzaga keladigan grammatik muammolarni tahlil qilish orqali ochib berish, shuningdek, grammatik muammolarni Hedli Cheyzning "Seyfdagi pullar" asari misolida kitobxonga tushuntirib, yoritib berishdan iborat.

Tadqiqotimiz maqsadi oldimizga quyidagi vazifalarni qo'yishni taqozo etadi:

- Tarjima va uning turlari haqida ma'lumot berish;
- Tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan muammolar tahlili;

⁴ Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat. 2008.

- Detektiv janr yozuvchisi Hedli Cheyz asarlarining o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumot;
- Grammatik muammolarni tahlil qilishni "Seyfdagi pullar" asari misolida tushuntirib berish.

Bitiruv malakaviy ishning o'rganilganlik darajasi. G'afurov I., Mo'minov O., Qambarov N.larning Tarjima nazariyasi" hamda Qudrat Musayevning "Tarjima nazariyasi asoslari" kabi kitoblarda, shuningdek, Dobrolyubovning "Eneida" haqidagi maqolasida hamda Jeyms Hedli Cheyzning "Seyfdagi pullar" asarida ushbu mavzuga doir olib borilgan sezilarli va samarali ishlarni guvohi bo'lamiz. Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda grammatik muammolar "Seyfdagi pullar" asari orqali keng va mazmunli qilib tushuntirib berishga harakat qilindi.

Ishning nazariy asoslari. G'afurov I., Mo'minov O., Qambarov N.larning "Tarjima nazariyasi" hamda Qudrat Musayevning "Tarjima nazariyasi asoslari" kabi kitoblar, shuningdek, Jeyms Hedli Cheyzning "Seyfdagi pullar" asari keltirib o'tiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy va nazariy ahamiyati. Hozirgi aloqalar har tomonlama jadal rivojlanib borayotgan bir davrda, taqdim etilayotgan ushbu bitiruv malakaviy ishi katta amaliy va nazariy ahamiyatga egaligi tabiiydir. Undagi tahlil va tadqiqotlar natijasi bo'lgan fikr-mulohazalardan oliy o'quv yurtlarining tarjima nazariyasi hamda adabiyotshunoslik fanlari bo'yicha ma'ruzalar va maxsus kurslarda foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibi. Mazkur bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki asosiy bob, to'rtta paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati o'zbekcha, inglizcha, ruscha adabiyotlar hamda internet saytlari kabi qismlardan iborat.

I BOB. TARJIMA JARAYONI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

1.1. Tarjima va uning turlari

Tarjima haqida gap ketar ekan, biz avvalo, tarjima o'zi nima ekanligini bilib olishimiz lozim. Tarjima bamisoli badiiy ijod, tarjimon esa ijodkordir.

Tarjima amaliyoti paydo bo'libdiki, asliyatni ona tiliga qanday o'girish lozim degan masala tarjimonlar oldida ko'ndalang turgan muammo sanaladi, tarjima borasida so'z yuritilganda, shubhasiz, ko'z o'ngimizda uning bir necha xillari namoyon bo'ladi. Jumladan:

a) bir tildan ikkinchisiga – qardosh yoki qardosh bo'lmagan tilga tarjima qilish;

b) adabiy tildan - uning biror shevasiga va biror shevadan – adabiy tilga yoki bir tilning shevasidan boshqa adabiy tilga tarjima qilish;

c) qadimiy davr tilidan o'sha tilning hozirgi zamonaviy holatiga tarjima qilish;

Hozirda tarjimaning yuqoridagi turlariga yana so'zma- so'z tarjima, ijodiy tarjima, erkin tarjima, mualliflashtirilgan tarjima va shu kabi bir qator tarjimalar ham qo'shilgan. Buning asosiy sababi tarjima jarayoniga turlicha yondashishdir. Ammo tarjimaning qaysi turi bo'lmasin, har qanday tarjimaning maqsad va vazifalari bo'ladi. Masalan, ketma-ket tarjima qilishni oladigan bo'lsak, ketma-ket tarjima qilish, bu bir tildagi og'zaki axborot berilgandan so'ng uni boshqa tilga tarjima qilishdir. Tarjimon so'zlovchining umumiy fikrlari yoki eng kamida asosiy abzastni tinglaydi va so'ng tinglash chog'ida yozib olingan eslatmalar (note taking) yordamida nutqni tarjima qiladi.⁵

Tarjimon shu tariqa asosiy so'zlovchi nomidan ketma-ketlikda so'zlaydi. Ba'zi so'zlovchilar bir nechta gap so'zlab, so'ng tarjimonga tarjima qilishni taklif qilishadi. Tarjimon qisqacha yozib olmasdan ham ishlashi mumkin va u o'z xotirasida aytilgan gaplarni saqlaydi. Shunday qilib, ketma-ket tarjima

⁵ G`afurov I., Mo`minov O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi. -T.: Tafakkur Bo'stoni, 2012. 173-bet.

so'zlovchining nutqini tinglangandan so'ng bajariladi. Bunday vaziyatda axborotning barcha mazmunini yodda saqlab qolish zarur. Ketma-ket tarjima muzokaralar, konferensiyalar davlat arboblari va siyosiy shaxslarning uchrashuvlarida va delegatsiyani kuzatib yurish chog'ida qo'llaniladi. Ketma-ket tarjima muammosi ilmiy adabiyotlarda ham yetarlicha muhokama qilinmagan. Ketma-ket tarjima qilish vaqtiga ko'ra ikki bosqichga ajratiladi.

Birinchi bosqich, so'zlovchining nutqini o'z ichiga oladi va bu bosqichda tarjimon qisqacha nutqni yozib olishi mumkin.

Ikkinchi bosqichda tarjimon aytilgan xabarni yozib olganlaridan foydalangan holda tarjima qiladi.

Inson xotirasi barcha gapni (ma'lumotni) yodda saqlab qololmaydi. Tarjimon matnda fikrning mantiqiy zanjirini topishi va so'zlovchi nutqining semantic asosini ochib berishi muhimdir. Shunday qilib, tarjimon so'zlovchining gapini yodda saqlab qolish uchun butun matnni tushunish imkonini beruvchi va gapini asosini yodda saqlab qolishga yordamlashuvchi semantik asosni topib, uni tarjima qilishi zarur.⁶

Inson odatda 7 yoki 5 ta semantik asosni yodda saqlay oladi. Gapning asosiy semantik asosi birinchi navbatda kesim va egani o'z ichiga olishi zarur. Ba'zi tarjimonlar asosiy semantik asos birinchi navbatda kesim bilan ifodalanadi, deyishadi. Lekin bir qator tilshunoslar kesim gapning mustaqil bo'lagi bo'lolmaydi deb yozishadi. Faqatgina ega bilan birgalikda gapning mazmuni anglanishi mumkin.

Ketma-ket tarjima qilishning 3ta asosiy prinsipi mavjud: anglash, tahlil qilish va qayta ifoda qilish.

Anglash prinsipida so'zlar emas, fikrlar tarjima qilinishi kerak. Agar tarjimon so'zlovchining nutqidagi biron bir so'zning tarjimasini bilmasa, u bu so'zning ma'nosini kontekstdan anglab yetishi zarur. So'zlovchining nutqini e'tibor bilan tinglash juda muhimdir. Ma'noni eslab qolish uchun asosiy fikrlarni va ular

⁶ G`afurov I., Mo`minov O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi. -T.: Tafakkur Bo'stoni, 2012. 164-bet.

orasidagi bog'lanishlarni bilish muhimdir.

Har qanday nutqda 2ta asosiy lahza mavjud. Ular nutqning boshlanish va tugashidir. Tarjimon aynan shularga o'z e'tiborini qaratishi lozim. Agar u aniq bo'lmasa va o'tkazib yuborilgan bo'lsa, so'zlovchidan fikrini oydinlashtirish talab etiladi. Tarjimon so'zlovchining fikrini o'zining so'zlari orqali ko'proq ifoda etsa, tarjimaning sifati yaxshiroq bo'ladi. Tarjimon ko'proq ijodiy yondashsa, uning tarjimasi to'g'ri bo'ladi.

Yana bir tarjima turi vizual tarjima qilish (Sight translation)

Ba'zi tarjimonlar vizual tarjima qilishdan oldin yozma ravishda rejalashtiradigan matnni ko'rib chiqishadi. Kabinada, matnni ko'rib tarjima qilish, yozma matnni o'qishga o'xshab emas, balki og'zaki nutq singari eshitilishi kerak.

Vizual tarjima qilish bo'lajak tarjimonlarni tayyorlashda katta ahamiyatga ega. Vizual tarjima qilish bir tilda yozilgan matnni boshqa tilga o'girib o'qishga aytiladi. Og'zaki va yoziladigan axborotni ko'rish jarayoni qamrab olinganligi sababli, ko'rib tarjima qilishni yozma tarjimaning maxsus tur, shuningdek, og'zaki tarjimaning o'ziga xos variant sifatida qabul qilish mumkin. Vizual tarjima qilish ehtiyotkorlik bilan bajarilishi kerak.

Vizual tarjima qilish sinxron tarjimaga yaqinroqdir. Matn ham og'zaki, ham yozma tarzda talabalarga taqdim qilinadi. Bunday hollarda talabalarda nutqning yozma nusxasini tayyorlashda 5-10 daqiqa vaqtlari bo'ladi. Ushbu tayyorgarlikka asoslanib, ular xuddi naushniklar orqali o'qib berilayotgandek ko'rib tarjima qilishlarini so'rashadi. Talabalar so'zlovchini tinglashlari shartligi aytiladi va bu ko'rib tarjima qilish mashqi bo'lsa ham, matnni shunchaki o'qishlari so'raladi.

Vizual tarjima qilish shunday qurolki, ushbu bo'limda tarjimonda matndagi texnik terminlarni tarjima qila olishga tayyorgarlik ko'rish imkonini beradi. Qiyin so'zlarning talaffuzini ko'rib olish mumkin. Bundan tashqari vizual tarjima qilish qiyin matnlar mazmunini konferensiya boshlangunga qadar ko'rish imkonini beradi.⁷

⁷ G'afurov I., Mo'minov O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi. -T.: Tafakkur Bo'stoni, 2012. 166-bet.

Vizual tarjima qilish har qanday tarjimonni o'qitish jarayonining asosiy qismidir. Vizual tarjima qilish bo'lajak tarjimonlarni kelajakdagi kasblariga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Bu ularning tezlik va jadal tarjima qilish mahoratlarini oshiradi. Tarjimon vizual qancha tez tarjima qilsa, uning tarjimasi shuncha ta'sirchan bo'ladi.

So'zma-so'z tarjima hech qachon qabul qilinishi kerak emas. Talaba matnni bir necha martadan tahlil qilishi lozim. Ravon va mantiqiy ifodalanmagan har qanday mazmuniy birikma agar lozim bo'lsa, matnga bog'lanmagan holda talaba tomonidan qaytarilishi lozim. O'quvchilar, talabalar matnga qaramay javob berishlarini foydali deyishadi, balkim to'liq tinglovchinig rolini ijro etishlari lozim.

Qolaversa, sinxron tarjima turi ham mavjud. Sinxron tarjimada vizual tarjima qilish uning eng yuqori pog'onasida qo'llaniladi. Har doim tarjimon eshitishi kerak bo'lgan ishning nusxasi ustida ishlaydi. Biroq, vizual tarjima qilishga qo'shimcha sifatida tarjimon so'zlovchi yozma matndan tashqariga chiqmayotganiga amin bo'lishi kerak. Tarjimaning bu shaklida, tarjimon ilmiy va texnik majlislarda qiyinchiliklarga duch keladi. Hayratli tomoni shundaki, ko'pchilik tarjimonlar imkoniyat bo'lgan vaqtda yozma matnni juda aniqlik bilan kuzatishni tanlashadi. Faqatgina eng yaxshi tarjimonlar aynan shu qiyinchiliklar ustida yozma matnsiz jonli tarjima qila oladilar. Yozma material yuqori tezlikda o'qilgan bo'lsa ham, tarjimon o'rta hisobda bir qancha vazifalarni bajarishi kerak:

1. So'zlovchining gaplarini yaxshi anglanganini tekshirishi;
2. Axborotni yakunlash;
3. Tarjima qilish mumkin bo'lgan ko'p axborotni ko'rib tarjima qilish.

So'zma-so'z tarjima hech qachon qabul qilinishi kerak emas. Talaba matnni bir necha martadan tahlil qilishi lozim. Ravon va mantiqiy ifodalanmagan har qanday mazmuniy birikma agar lozim bo'lsa, matnga bog'lanmagan holda talaba tomonidan qaytarilishi lozim. O'quvchilar, talabalar matnga qaramay javob berishlarini foydali deyishadi, balkim to'liq tinglovchinig rolini ijro etishlari lozim. Sinxron tarjimada, tarjimon tarjima qilish kabinasida o'tiradi va naushnik (quloq

eshitgich) orqali so'zlovchini tinglaydi, so'ng tinglash chog'ida mikrofon orqali tarjima qiladi. Konferensiya xonasidagi delegatlar asosiy tilni naushnik orqali tinglashadi.

Sinxron tarjima imo-ishoralar orqali ham bajariladi (kar va soqovlar uchun). So'zlangan tildan imo-ishora tiliga tarjima qilinadi. Imo-ishorada tarjimonlar kabinada o'tirishmaydi, ular so'zlovchini ko'ra oladigan va boshqa qatnashchilarda ko'rina oladigan konferensiya xonasiga tushishadi. Pichirlab tarjima qilish sinxron tarjimaning shunday shakliki, bunda tarjimon konferensiya xonasining kabinasida emas, balki tarjima kerak bo'lgan delegatning ortida o'tiradi va nutqning asosiy mazmunini delegatning quloqlariga pichirlaydi.⁸

Rivojlangan mamlakatlar qatorida ona tilimizning ham xalqaro tillar safiga qo'shishga katta umid bog'lab, boshqa chet tillardan o'zbek tilimizga va aksincha o'zbek tilidan chet tiliga bevosita, ya'ni hech bir o'zga til vositaligisiz tarjima qilish faoliyati jadal sur'atlar bilan taraqqiy topmoqda. Xususan, uzoq davrlardan buyon mamlakatimizda, asosan, yozma tarjima sohasi keng ish olib borar edi. Lekin so'nggi yillarda davr talabi bilan og'zaki tarjimaning, jumladan, aynan sinxron tarjimaning salmog'i ortib bormoqda.

Amaliyotda sinxron tarjimaning uch turi (varianti) kuzatiladi:

1. Yodaki (eshitib) sinxron tarjima. Bunda tarjimon quloqchinlar orqali notiqning uzluksiz nutqini qabul qilib, ma'lumotni tushishiga qarab tarjimani bloklab amalga oshiradi. Bu eng keng tarqalgan va eng murakkab holatdir.

2. Oldindan tayyorgarlik ko'rib yoki tayyorlanmasdan matnga qarab sinxron tarjima. Sinxron tarjimon oldindan notiqning yozma nutq matnini oladi va keltirilgan materiallarga muvofiq tarjimani amalga oshiradi.

3. Oldindan tarjima qilingan matnni sinxron o'qish. Sinxron tarjimon notiqning nutqi ketidan avvaldan tayyorlab qo'yilgan matnni o'qib boradi. Joiz

⁸ G`afurov I., Mo`minov O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi. -T.: Tafakkur Bo'stoni, 2012. 167-bet.

o'rinlarda agar notiq nutqi chog'ida dastlabki matndan chetlashsa, kerakli tuzatishlar kiritadi.

Sinxron tarjima tarjima usulining bir turi sifatida uning eng katta o'ziga xos xususiyati yuqori samaralilikdan iborat bo'lib, asl matn nutqi va tarjima nutqi o'rtasida oraliq vaqt o'rtacha 3-4 soniyani tashkil etadi. Eng ko'pi bilan esa 10 soniyagacha yetadi. Shuning uchun notiqning beto'xtov nutq so'zlashi kafolatlanib, notiqning fikr-mulohazasiga chetdan hech qanday ta'sir bo'lmaydi va nutqidan to'xtamaydi. Bu esa tinglovchilarning nutqni butunligicha tushunib yetishlariga imkon beradi. Shu sababli sinxron tarjima hozirda dunyoda odatiy udumga kirgan tarjima usuliga aylanib bo'lgan. Bugungi kunda dunyoda 95% xalqaro yig'ilish, konferensiyalarda sinxron tarjimadan foydalaniladi.⁹ Shuning bilan birga sinxron tarjima juda katta ilmiylik va mutaxassislik xususiyatiga ega va u odatda rasmiy xalqaro konferensiyalarda foydalanilganligi sababli sinxron tarjimaga nihoyatda yuqori talablar qo'yiladi.

Sinxron tarjima talablari shundan iboratki, tarjimondan uning asl tilda nutq so'zlanayotgan chog'ida tinglab farqlashi bilan birgalikda tematik bilimlariga tayangan holda qisqa vaqt ichida tezkorlik bilan asl tildagi ma'lumotni bashorat qilishi, tushunib anglashi, xotirada saqlab qolib uni yo'naltirishi talab etiladi. Shuning bilan birga turli xalqaro konferensiya, yig'ilishlarda sinxron tarjimondan "chaqmoqday tafakkur" qilish qobiliyati hamda yuqori nutq mahoratiga ega bo'lishi talab etiladi. IAIC (Xalqaro sinxron tarjimonlar assotsiatsiyasi) qaroriga muvofiq, sinxron tarjimon ishtirokchi-notiqning mazmunini faqatgina 80%ini tarjima qila olsa muvaffaqiyatga erishgan hisoblanadi (90%-100% li sinxron tarjimani amalga oshirib bo'lmaydi).

Bundan tashqari, tarjima jarayonida eslatma yozuvlar (note-taking) tayyorlash mumkin. Masalan, bog'lovchilar therefore, because va boshqalar kiritiladigan eslatmalarda eng muhimidir. Eslatmalar matnning asosiy mazmunini o'z ichiga oladi. Ular nutqning tashqi shaklini ta'minlaydi.

⁹ O'zbekistonda tarjimachilik. - T, O'ZSSR, "Fan" nashriyoti, 1988. B. 134.

Asosiy fikrlar ega, kesim va to'ldiruvchi orasida bo'lishi zarur. Eslatma-yozuvlar belgilardan tashkil topadi. Belgilar xususiyatlariga ko'ra quyidagicha. Masalan, "O" – dumaloq stol atrofidagi muzokarani bildiradi. Bu konferensiya, congress, uchrashuv, forum, seminar, anjuman, sessiya va shu kabi boshqa tushunchalarni birlashtirishi mumkin. "O" – belgisi do'stlik, hamkorlik, kelishuv kabi tushunchalarni ham anglatadi.¹⁰

Eslatma yozuvlar tarjimonni jismoniy, shuningdek, ruhiy ko'mak bilan ta'minlaydi hamda xabarning to'liqligini ta'minlaydi. Eslatma yozuvlar yordamida tarjimon sonlar, kunlar, statistikalar va atoqli otlar kabi qiyin kontekstlashtirilgan xabarlarni xotirasida saqlash mashqi bilan shug'ullanish mumkin.¹¹

Belgilar fikr bilan emas, balki so'z orqali bog'lanadi. Odatda so'zlarning boshlang'ich harfi tanlanadi, semantik chegara bilan xarakterlanadi. Masalan, U.S (United States), L – Life. Ular faqatgina bir fikrni ifodalaydi.

Tarjimaga lingvistik tarjimashunoslik nuqtai nazaridan yondashib, quyidagicha ta'rif berish mumkin. Millatlar o'rtasida o'zaro aloqa qilishga ehtiyoj kuchaygani sari tarjimachilik faoliyati ham kengayib boraveradi. «Tillardan tillarga tarjima qilish mumkinligini asoslaydigan narsa shuki, jahon xalqlari garchi turli-tuman tillarda so'zlashsalar ham, ammo ularning taffakur qonunlari bir xildir», deb yozadi tarjimashunos olim G'.Salomov.¹²

Tarjima ko'p sohali, sertarmoq va murakkab hodisa. Tarjimaning bosh xossasi uni boshqa til vositalari bilan qayta yaratishdan iborat. Ma'lumki, tarjima bevosita yoki bilvosita amalga oshiriladi. Hozirgi paytgacha qilingan tarjimalar, masalan, rus adabiyoti namoyondalarining asarlari bevosita, ingliz, nemis, fransuz yozuvchilarining asarlari esa bilvosita (vosita til), ya'ni, rus tili orqali tarjima qilindi. Keyingi qator yillarda bevosita chet tillardan qilingan tarjimalar ham paydo bo'ldi. Hattoki, ayrim adiblarimiz asliyatdan tarjima qilish maqsadida chet tillarini

¹⁰ G'afurov I., Mo'minov O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi. -T.: Tafakkur Bo'stoni, 2012. B. 164.

¹¹ G'afurov I., Mo'minov O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi. -T.: Tafakkur Bo'stoni, 2012. B. 165.

¹² Salomov G'. Tarjima nazariyasiga kirish. O'qituvchi, T., 1978. B.149.

o'rganishga kirishishdi.¹³

Badiiy tarjima xalqlar o'rtasidagi madaniy aloqalarni shakllantirish va mustahkamlashda bir xalqning madaniy boyligi, hayoti, turmush tarzi va manaviy yutuqlarini boshqa xalqlarga tanishtirishda muhim o'ringa ega. Tarjima tufayli o'zbek o'quvchilari rus va chet el yozuvchilarining asarlari bilan o'z ona tilida tanishishda davom etmoqdalar. Rus mutaxassislarining ulkan tarjima tajribasi o'zbek tarjimachiligi uchun maktab vazifasini bajargan. Bundan tashqari, rus tili jahon adabiyotini o'zbek tiliga tarjima qilishda doimiy vositachi bo'lib kelgan. Chet tili mutaxassislarining yetishmasligi, yetarli tarjima tajribasining yo'qligi va shunga o'xshash boshqa omillar vositali tarjimaga bo'lgan talabni kuchaytirdi, bu esa o'z navbatida o'zbek adabiyotida chet el asarlarining ko'payishiga olib keldi. Lekin shu yutuqlar bilan bir qatorda qator kamchiliklarni ham ushbu ishimizda ko'rsatib o'tishni maqsad qildik. Tarjima murakkab jarayon hisoblanadi. Bunda to'liq yaxlitlikka erishish uchun tarjimonga badiiy sezgi, qobiliyat va keng aql idrok yetishmasligi mumkin.¹⁴

Tarjima qilinayotgan asar tili va o'z ona tilini yaxshi bilish bilan bir qatorda tarjimon muallif uslubi, asarda tasvirlangan obrazlar xarakteri, hayoti, urf-odatlar, turmush shart sharoitlari, psixologiyasi, shu bilan birga tarixi, adabiyoti, diniy va milliy qarashlari, asardagi turli holat va jarayonlari haqida chuqur tasavvurga ega bo'lishi kerak. Adekvat tarjima uchun nafaqat asar badiiy butunlik sifatida aks etishi, balki uning tili va uslubini muallif o'zi tasvirlagandek tassavur qilinishi kerak. Agar tarjimon asar tilini bilmasa va uning taglama tarjimalari yoki bilvosita qilingan tarjimalari nusxalaridan foydalanib tarjima qilsa, asliyat matni va tarjimaning mosligi borasidagi muammolar yanada ko'payadi. Asl nusxani boshqa nusxalar vositasida tarjima qilishda asarning mazmun va shakli o'zgaradi va bu muallifning individual uslubini yo'qolishiga va ko'plab boshqa xatoliklarga olib

¹³ Aznaurova E.S., Abdurahmonova X.I. va boshqalar. Translation theory and practice . -Toshkent: O'qituvchi,1989. B. 185.

¹⁴ Tarjima san'ati. Maqolalar to'plami. - Toshkent, G'.G'ulomov nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1973. B.43.

keladi.¹⁵ Tarjimada asarning o'ziga xosligini tiklash muvaffaqiyatli amalga oshishi uchun, davrlar xarakterini, muallifning badiiy ijodiy uslubini asar qahramonlari nutqini tarjimon imkon boricha to'g'ridan-to'g'ri asl nusxadan tarjima qilishi kerak.

Badiiy tarjima jarayonida shunday holatlar ham bo'ladiki, biz yuqorida ko'rib o'tganimiz, mikrokontekstdan har doim ham gapning ma'nosini anglab olib bo'lmaydi. Bu kabi holatlarda, tarjimonlar o'zining fon bilimlariga tayanib ish ko'rishlari kerak bo'ladi. O'zbek tilida odatda hurmatli va yoshi katta kishilar bilan muloqot qilish jarayonida “-siz” suffiksi va “siz” olmoshini so'zlarning oxiriga qo'shish qabul qilingan. Rus tilida bu holat “ТЫ” va “ВЫ” so'zlari yordamida farqlanadi. Ingliz tilida esa bu ko'rsatkich har qanday holatda ham “you” tarzida beriladi. Shuning uchun ham, qahramon “siz”lab yoki “sen”lab gapirayotganini umumiy katta kontekst vositasida tarjimon aniqlab olishi zarur bo'ladi. Shuning vositasida odob-axloq qoidalari normalari saqlab qolinadi:

- *“Why, last night, dad, we heard her say, I played it ever so much. Honest –I have been playing it. And it's such a splendid instrument you don't know how I love it. I didn't like to play loud when you were so sick.”*

- *Nega unday deysan otajon, - dedi qiz, - kecha kechqurun juda ko'p chaldimku. Xudo haqqi, otajon rostdanam chaldim. Nimasini aytasan shunday ajoyib pianino ekanki , asti qo'ya ber, u menga juda, juda yoqib tushdi . Sen betob bo'lganing uchun qattiq chalgim kelmadi.*¹⁶

Asl nusxaning milliy o'ziga xosligini tiklash badiiy asarning tarjima qilinish muammolari bilan chambarchas bog'liq. Ma'lumki, badiiy asarlarda ma'lum bir xalqning voqe'lik omillari badiiy obrazli shaklda ifodalaniladi. Obrazlarning o'ziga xos jihatlari va xarakterlari asarda frazeologik birliklar orqali ifodalaniladi. Ular har bitta tilda o'ziga xos ifoda shakliga ega. Frazeologik birliklar xalqning madaniyatdagi o'ziga xosligini til tizimiga mustahkam o'rnashadi va bu bilan ma'lum bir milliy ruh bag'ishlaydi. Iboralarning milliy koloriti ular tarkibidagi

¹⁵ www.wikipedia.uz

¹⁶ Svory T. The art of translation.-London,1957. P. 244.

ma'lum bir birliklar ishtirokida shakllanadi. Ma'lumki turli xil geografik nomlar ham iboralarning tarkibiy qismi bo'lib xizmat qilishi mumkin. Misol uchun quyidaga iboralar tarkibiga mamlakat, shahar, qishloq, daryo, sahro nomlari ham kiradi. Bu iboralarning ba'zilar mazmun va madaniyati jihatidan faqat o'zbek xalqi uchun xosdir.¹⁷ Bu kabi birliklarning tarjima tilida berilishida yo'l qo'yilgan xatoliklar odatda butun boshli matnda g'alizliklarni keltirib chiqaradi. Bunday iboralarning qo'llanilishi asl nusxadagi tilning o'ziga xosligiga mos kelmay natijada milliy koloritga zarar yetkazadi. Agar asl nusxa matnini so'zlarining tarjima matni tarkibiga kiritish holatlari tarjima amaliyotda xatarli bo'lsa, milliy mohiyatni ifodalovchi bunday til birliklarini tarjima qilish o'ta qaltis, chunki, bunda tarjima asl nusxa bilan umuman mos kelmasligi mumkin. Bunday holatlar ma'lum bir til sohiblari uchun darrov ko'zga tashlanadi. Buning natijasida ortiqcha tafsilot va mazmunnning yo'qolishi yuzaga kelishi ham mumkin. Bu orada ma'lumki, har bir milliy tilning lug'at boyligi nafaqat o'zining ichki imkoniyatlari bilan, balki, boshqa tillarning ta'siri ostida ham boyitiladi. o'zlashtirma so'zlar tilning lug'at boyligida mustahkam o'ringa ega.

Bundan tashqari, tarjimon har bir xalq uchun o'ziga xos ma'no kasb etuvchi o'xshash so'zlarga alohida e'tibor berishi kerak. To'g'ridan-to'g'ri tarjima har doim asl nusxaning mazmun va shakl dialektik birligini tiklash imkonini beradi. Nafaqat kommunikativ, balki, ma'lum bir stilistik vazifalarni ifodalashda foydalaniladigan til vositalari tarjimada murakkabliklarni yuzaga keltiradi. Ularni bartaraf etish esa, kontekstda mavjud birliklarning mohiyatini tushunish aniq vaziyat til birliklarini mohirona tanlash bilan chambarchas bog'liq. Yaxshi tarjima qilingan asar har doim o'quvchini quvontirib unga estetik zavq bag'ishlaydi. Rus tili ikki madaniyat o'rtasida yaxshi vositachi vazifasini bajardi va o'zbek adabiyoti zaxirasini boyitdi va boyitishni davom etmoqda. Lekin, masala shundaki, bevosita tarjima muammolarini qayta ko'rib chiqish va uni rivojlantirish uchun jiddiy sabablar bor. Zero bu haqiqiy asar ruhini birga yetkazishga xizmat qiladi. Faqat

¹⁷Toshkent Davlat Sharqshunoslik instituti tarjimashunoslik fanidan ma'ruza matnlari. – Toshkent. 2012. – B.67.

shundagina badiiy o'ziga xoslikni milliy ruhiyatni va muallifning individual ruhiy ijodiy uslubini ifodalash mumkin.

Bevosita tarjima. Bu – to'g'ridan-to'g'ri asliy matn bilan ishlash natijasida yuzaga keladigan tarjima. Bevosita tarjima jarayonida mutarjimning asliyat tilini bilguvchi, zullisonayn bo'lishi talab qilinadi.¹⁸ Bu haqda adabiyotda ko'p gapirilgan. N.A.Dobrolyubovning «Eneida» haqidagi maqolasini eslaylik. Unda buyuk tanqidchi tarjima qiluvchi kishi, birinchi navbatda, shoir bo'lishi kerak, degan edi. Uning badiiy didi yuksak bo'lishi ayni asarni yozgan shoirning ichki dunyosini bilmog'i, uning ijodini to'liq his qilmog'i kerak. Bugina emas, klassik asarlarni tarjima qiluvchi kishi olim ham bo'lishi zarur. U o'sha xalqning qadimiy turmush sharoitlarini, o'sha davrlardagi urf-odatlarini, xususan, ularning tilini mukammal bilmog'i darkor. Har bir so'zning eng nozik ma'nolarini, hatto ko'z ilg'amas bir ko'makchining ma'nosini ham yaxshi bilishi kerak. Xususan, u asarni qaysi tilga tarjima qilayotgan bo'lsa, o'sha tilni juda yaxshi bilishi zarur. U zo'rma-zo'rakilik bilan tarjima qilmaslik, o'z tilining butun boyligidan to'la foydalana olish, bironta ham sun'iy jumлага, g'aliz iboraga yo'l qo'ymaslik, asarda tasvirlangan fikrni mumkin qadar to'laroq aks ettirish uchun o'z tilida to'g'ri va chiroyligina emas, balki yengil va erkin yoza bilmog'i lozim.¹⁹

Bevosita, bilvosita yoki vositali tarjimada mutarjim asliyat tilidan ikkinchi tilga o'girilgan matn asosida o'zining tiliga ag'daradi –tarjimadan tarjima yuzaga keladi. Natijada taglamadan tildagi tarjimaga o'tgan hamda uning o'zida yuz bergan qusurlar tilga o'tishi oqibatida tarjima sifatsizlanaveradi. Shuning uchun, bevosita tarjima eng muhim sifat mezoni hisoblanadi.²⁰ Jahon adabiyotida bunga misol ko'p. Yuqori taraqqiyot bosqichida turgan xalqlarning so'z ustalari o'z asarlarining vosita tillar orqali tarjima qilinishini o'zlari uchun isnod deb bilganlar. Shu tufayli doimo buyuk adibni bevosita ingliz tilidan tarjima qilish uchun kurashdilar. Hozir ruslar, ukrainlar, gruzinlar, armanlar, Boltiq bo'yiliklar

¹⁸ www.ziyonet.uz

¹⁹ N.A. Dobrolyubovning "Eneida" haqida maqolasi

²⁰ Hamidov X.X. Tarjimashunoslik fanidan ma'ruza matnlari. – Toshkent. 2012.B.49.

dramaturg asarlarini ingliz tilidan tarjima qiladilar. M. Lozinskiy, B. Pasternak, S. Marshak Shekspir asarlarini to'g'ridan-to'g'ri XVII asr ingliz tilidan, S.N. Ivanov Alisher Navoiy asrlarini XVI asr eski o'zbek tilidan qoyil maqom qilib o'giranlar.

1.2. Tarjima jarayonida uchraydigan muammolar

Tarjima badiiy ijodning eng mashaqqatli sohasi bo'lib, u kishidan bag'oyat katta bilim egasi bo'lishni taqozo etadi. Tarjima teng ma'nolilik (muqobililik) ni taqozo etadi, amalga oshirilgan tarjima aslyatga mazmun jihatdan muvofiq bo'lishi kerak. Bu hodisa hamisha tarjima nazariyasi va amaliyotining asosiy muammolaridan biri bo'lib kelganligi aniq. Tarjimon faoliyatining asosiy mahsuli va sifati ham zotan shunga bog'liqdir. Tarjima qilinayotgan matn yoki nutqning qandayligidan qat'iy nazar bir tildan boshqa bir tilga tarjima qilish uchun umumiy bo'lgan ikkita holat mavjud:

1. Dastavval tarjima qilish uchun mo'ljallangan asarni tushunish, uning janrini aniqlash va tahlil qilish lozim. Bu jarayon ona tilida amalga oshiriladi.

2. Asar o'girilayotgan tilda muvofiq ifoda vositalarini topish zarur. Bularga badiiy so'z, so'z birikmalari, grammatik shakllar kiradi.²¹

Tarjima ikki til yoki tillar o'rtasidagi voqealikning hodisasi. Tarjima nazariyasida lingvistikaning o'rni beqiyos. Keyingi o'n yillarda nazariyada lingvistik muammolar ko'p va qayta-qayta ishlanmoqda. Ulardan ma'lum bo'ladiki, tarjimada lingvistikasiz ishonch bilan qadam tashlash qiyin. Shu bilan birga lingvistik muammolar qatorida tarjimaning poetik, estetik, psixologik, falsafiy, ijtimoiy muammolarini chuqur va izchil o'rganish, tarjima tanqidiga hozigiga qaraganda kuchliroq e'tibor qaratish bu jozibador sohaning muhim vazifalar sirasiga kiradi. Tarjimashunoslik o'zinig mana shunday qirralari bilan hamisha jozibador va samarali bo'la oladi.

Keyingi paytlarda yuzaga kelayotgan lingvistik tadqiqotlarda tarjima muammolariga katta e'tibor berilmoqda, lingvistik tarjimashunoslik bo'yicha yaratilayotgan ko'pchilik tadqiqotlarda tarjima nazariyasi va amaliyotining juz'iy masalalari bilan bir qatorda mazkur sohaning mohiyatini aks ettiradigan umumnazariy muammolar ustida ham keng ko'lamda bosh qotirilmoqda. Bu hol

²¹ <http://www.dissercat.com/content/metaforicheskoe-modelirovaniegendernoi-oppozitsii-v-russkom-yazyke>

lingvistik tarjimashunoslikning tadqiqotchilar e'tiborini borgan sari ko'proq o'ziga tortayotganligidan dalolat beradi²².

So'z va uning ma'nolarini tarjimon yaxshi bilishi yoki ularni lug'atdan topishi shart. Aks holda tarjimon "tarjimonning soxta do'stlari" tuzog'iga tushishi mumkin.²³

So'z ma'nosining qaysi biri qo'llanilganini aniqlash tarjimonning birinchi galdagi vazifasi hisoblanadi. Bunda tarjimonni adashishdan, noto'g'ri so'z tanlashdan saqlaydigan til hodisasi bu – kontekst hisoblanadi. Ko'chma ma'noda aytadigan bo'lsak, kontekst tarjimonning yo'lchi yulduzi, mayog'idir. Kontekst tarjimonning eng ishonarli quroli sanaladi. Tilshunoslikda odatda kontekstning ikki – lingvistik va ekralingvistik turi mavjud. Lingvistik kontekst o'z navbatida ikki turga – keng va tor ma'nodagi kontekstlarga bo'linadi. Tor ma'nodagi kontekst ibora va gap doirasida, keng ma'nodagi kontekst iboradan katta bo'lgan birlik hamda butun bir matnni o'z ichiga olish mumkin.

Kitobxon tarjimada shavq-zavq uyg'ota olmaydigan asarni muallif tomonidan past saviyada bitilgan deb baholaydi, ya'ni noto'g'ri tarjima kitobxonni chalg'itadi. Tarjimaning vazifasi - asliyat va tarjima tillari leksik, grammatik va stilistik hodisalari o'rtasidagi uyg'un hamda tafovutli jihatlarni puxta o'zlashtirib olgan holda, asliyatning shakl va mazmun birligini ona tili vositalari yordamida qayta yaratishdan iboratdir. Bu tamoyilga rioya qilmaslik tarjimada aniqlikning, ifoda me'yorining buzilishiga olib keladi.

Tarjima qilish jarayonida, ikki tilda bir so'zning barcha ma'noviy farqlarini qamrab olishning imkoni yo'q. Asliyatdagi so'z ma'nosi tarjima tilida to'liq ekvivalent, qisman ekvivalentga ega bo'lishi yoki hech qanday ekvivalentga ega bo'lmasligi mumkin²⁴.

Ma'lumki, tarjimada bitta tushunchaga bitta tushunchaning to'g'ri kelish holatlari nisbatan kam uchraydi. Tajriba shuni ko'rsatadiki, tarjimada so'zga so'z,

²²Musayev Q. Tarjima nazariyasi asoslari: Darslik. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi FA "Fan" nashriyoti, 2005. – B.8.

²³G'ofurov I., Mo'minov O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi. – Toshkent: Tafakkur Bo'stoni, 2012. – B.104.

²⁴Xudoyqulov A.E. Collection of lectures on the theory and practice of translation – Termiz: 2007. – B.27.

so'zga so'z birikmasi, so'zga gap to'g'ri kelishi mumkin. Shuning asosida tarjimada leksik birlik deganda, biz so'z va so'z birikmasini, hatto bitta so'zga to'g'ri keladigan frazeologik birlikni ham tushunishimiz mumkin. Bunda ikki va undan ortiq so'zdan iborat bo'lgan frazeologik birlik bitta so'z ma'nosiga to'g'ri kelgan bo'lishi lozim.

Agar asliyatdagi so'zga tarjima tilida bitta so'z to'g'ri kelsa, u holda ikki tildagi so'z ma'nolari to'liq ekvivalentga ega bo'lgan hisoblanadi. Bunday so'zlar sirasiga odatda atoqli otlar, geografik va joy nomlari, korxona, tashkilot, muassasa, idora, kema va mehmonxona nomlari va shu kabilar kiradi. Agar asliyatdagi so'zga tarjima tilida bitta so'z qisman to'g'ri kelsa, bunda biz qisman ekvivalentlar haqida fikr yuritishimiz lozim. Tarjima nazariyasida qisman ekvivalentlarning uch turi ham ajratiladi. Bunga sabab bir tilda to'g'ri keladigan, ekvivalentdan tashqari yana bir nechta so'z ma'nolaridan iborat bo'lishi mumkin. Mazkur ko'p ma'noli so'zning bittasi ekvivalent, qolganlari esa qo'shimcha ma'no sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, ingliz tilidagi ko'p ma'noli "cover" so'zini oladigan bo'lsak, u o'zbek tilidagi "yopmoq", "solmoq", "to'shamoq", "ustiga yozmoq", "berkitib (yopib) qo'ymoq", "yashirmoq" hamda "(matbuotda, maqolada) yoritmoq" ma'nolariga ega²⁵.

Shuningdek, tarjimaning leksik va grammatik muammolari mavjud bo'lib, dastlab, leksik muammolar va ularni hal etish masalalariga to'xtaladigan bo'lsak, tarjimaning leksik muammolarini hal etishda ikki tilli lug'atlar ma'lum jihatdan ahamiyati katta hisoblanadi. Biroq odatda lug'atlarda so'z ma'nosining muqobillarigina beriladi. Tarjima lug'ati qanchalik mukammal bo'lmasin, unda so'zlarning barcha ma'nolari yoki ma'no nozikliklarini qamrab olishning iloji yo'q, chunki lug'at ikki til tizimi unsurlari bilan ish ko'radi. Tarjima uchun til tizimlari emas, balki nutq, aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, nutq mahsuli bo'lmish matn muhimroqdir. Tarjima jarayonida tarjimon ko'p ma'noli so'zning qaysi ma'nosi qo'llanilganligini kontekst asosida o'zi aniqlamog'i lozim.

²⁵ G'ofurov I., Mo'minov O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi. - Toshkent: Tafakkur Bo'stoni, 2012. - B. 107.

I. G`ofurov va O. Mo`minovlarning “Tarjima nazariyasi” kitobida keltirilishicha, leksik transformatsiyalarning besh turi mavjud bo`lib, ular: konkretlashtirish, umumiyashtirish, tushurib qoldirish, ikki hodisa o`rtasidagi mantiqiy hodisaga asoslangan transformatsiya va antonomik tarjima. Shu o`rinda shuni ta`kidlab o`tish joizki, antonomik tarjima leksik transformatsiya bo`lish bilan birga grammatik transformatsiya ham bo`lishi mumkin.

Antonimik tarjima ba`zi hollarda asliyatda qo`llanilgan so`z tarjimada antonim bilan almashtirilishini anglatadi. Boshqacha qilib aytadigan bo`lsak, u tarjimada tushirib qoldiriladi. “*Take it easy - tashvishlanaverma*”, “*I don’t want to cheat*” – “*Men to’g’risini aytaman*” deb tarjima qilinishi mumkin.

Muqobili yo`q so`zlarni tarjima qilishning eng oson yo`li bu – so`zlarni transliteratsiya qilish, ya`ni so`z talaffuzini berish, saqlash hisoblanadi. Bu usulda kishi ismlari, joy nomlari, geografik nomlarni, lavozimlarni, gazeta va jurnallar, ya`ni davriy nashr nomlarini, korxona, tashkilot, firma, kompaniya nomlarini, kema hamda mehmonxona nomlarini transliteratsiya qilishda keng foydalaniladi. Masalan, o`zbek tiliga ingliz tilidagi Hamlet so`zi ikki yo`l bilan beriladi – Gamlet hamda Hamalet. Ikkinchi usul o`zbek tili qonun-qoidalariga yaqin bo`lishi bilan ajralib turadi. Bundan tashqari, joy nomlaridan Samarqand shahar nomini olaylik. O`zbek tilidagi bu shahar nomi ikki usulda berilishi mumkin. Ingliz tilida bu nom Samarqand hamda Samarkand shakllarida transliteratsiya qilinishi mumkin. Birinchi usulda transliteratsiya qilingan so`z aksariyat hollarda tarixiy matnlarda qo`llansa, ikkinchi usuli zamonaviy matnlarda ishlatiladi.

Agar davriy nashr nomlarini transliteratsiyasiga to`xtaladigan bo`lsak, bunda asosiy e`tibor gazeta va jurnallar nomiga va ayni paytda ular kimlarning manfaatiga xizmat qilishiga qaratilmog`i lozim. Chunki, gazetalarining nomini faqat transliteratsiya qilish bilan cheklanib bo`lmaydi. Masalan, “*The Daily Express*”, “*The New York Times*” gazetalarini olsak, gazetaning nomi mashhur bo`lishi mumkin, lekin ularning nomi o`zbek o`quvchilariga birdek ma`lumot bermaydi. “*The Daily Express*” ingliz konservatorlar gazetasi “*Deyli Ekspress*” deb tarjima qilinishi maqsadga muvofiq. Xuddi shu narsani “*The New York Times*”

gazetasiga ham nisbatan qo'llash mumkin. Bu davriy nashr nomi bilan qator o'zbek o'quvchisiga ma'lumot berish va gazeta nomini transliteratsiya qilish quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi: *AQShning milliy gazetasi Nyu York Tayms*.

Asl nusxa muallifidan voqelikni to'g'ri aks ettirish talab etilsa, tarjimondan asl nusxani bekami-ko'st talqin etish talab qilinadi.

Tarjima jarayonida bir qancha grammatik muammolar yuzaga keladi. Xususan,

1. Tarjimada grammatik muvofiqlik. Grammatik muvofiqlikning uch turi mavjud: to'liq, qisman, nomuvofiqlik. Biz grammatik muvofiqlikni ikki qismga bo'lamiz: morfologik va sintaktik.

To'liq morfologik muvofiqlik bir xil grammatik kategoriyalar bor bo'lganida kuzatiladi. Misol uchun: zamon kategoriyasi, son kategoriyasi, nisbat kategoriyasi va h.z

Boys – bolalar-дети²⁶

Qisman morfologik muvofiqlik tillardagi grammatik kategoriyalar bir-biriga mos kelmaganida kuzatiladi. Misol uchun: ingliz tilida 2 ta kelishik bor, o'zbek tilida esa 6 ta. Grammatik kategoriyalardagi farqlar odatda tildagi boshqa vositalar bilan ifodalanadi.

Morfologik nomuvofiqlik tilda grammatik kategoriyalarni mos kelmaslik holatida kuzatiladi. Misol uchun: o'zbek tilida egalikning grammatik kategoriyasi mavjud. U affikslar orqali ifodalanadi, lekin bunday grammatik kategoriyalar ingliz tilida ham, rus tilida ham mavjud emas. Ular bunda olmoshlardan foydalanishadi.

Ingliz, o'zbek va rus tillari tipologik va genetik jihatdan turli xil tillardir. Morfologik jihatdan ingliz tili analitik xususiyatga ega, rus tili esa sintetik xususiyatga ega, o'zbek tili aglutinativ grammatik shakl va yasama so'zlarning so'z o'zagi va negiziga affikslar qo'shilishi natijasida yasalgan tildir. Ingliz tilida so'z tartibi qat'iydir. Misol uchun: Ega=kesim. Gap bo'laklari tartibidagi har qanday o'zgarish ma'noni buzilishiga olib keladi. Misol uchun: *Ten men sent Ben*.

2. Tarjima qilishdagi grammatik qiyinchiliklar.

²⁶ G'ofurov I., Mo'minov O. Qambarov N. Tarjima nazariyasi. – Toshkent: Tafakkur Bo'stoni, 2012. – B.137.

Tilning grammatik tuzilishi uning sistemasidagi umumiy muhim jihatdir. Affikslar, grammatik qo'shimchalar va so'z yasalishi, sintaktik modellar, so'z tartibi, yordamchi so'zlar va h.k. kabi tilning grammatik tuzilish elementlari grammatik yoki leksik ma'nolarning aniq shaklini ko'rsatishga xizmat qiladi. Tarjima qilish jarayonida bu ma'nolarni ifodalash muhim muammodir.

3. Tarjima qilishda grammatik transformatsiyalardan foydalanish.

Grammatik transformatsiyalar turli xil grammatik va leksik ko'rinishlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Tarjima qilishda grammatik transformatsiyadan keng foydalanishning sababi rus yoki o'zbek tilidagi gap ingliz tilining grammatik tuzilishi bilan mos kelmasligida deb izohlanadi: gapda so'z tartibi gaplarning joylashuv tartibidagi farq bosh gap va ergash gap tartibidagi farqdir.²⁷

Tarjima qilish jarayonida ikki holat ro'y beradi, ya'ni birinchidan, tarjima qilish uchun o'girilayotgan narsani tushunish, anglash va talqin qilish kerak. Bu hodisa ona tilida ro'y beradi. Ikkinchidan, asar o'girilayotgan tilda muvofiq ifoda vositalari, ya'ni so'z, so'z birikmasi, grammatik formalarni topish lozim.

Tarjimaviy muvofiqlik yaratish uchun turli juft tillar vositalarini qiyosiy o'rganish, badiiy matnning estetik o'ziga xosligini, uning moddiy-mantiqiy, hissiy ta'sirchan va obrazli tizimini tashkil etuvchi unsurlari tarkibidagi uslubiy va pragmatik xususiyatlarni aniqlash hamda stilistik asosga tayanishni taqazo etadi. Til birliklarining uslubiy bo'yoq kasb etish xususiyati turli juft tillar birliklarining mazmuniy-uslubiy va pragmatik jihatlardan o'zaro mos kelish-kelmasliklari to'grisida qaror qabul qilish imkonini beradi. Tarjimaning bunday tahlili mazkur sohadagi tasavvur va qarashlarni boyitadi. Ular nafaqat lisoniy, balki til ma'lumotlari tarkibidan tashqarida bo'lgan ruhshunoslik, jamiyatshunoslik, etnografik, milliy tarixiy va boshqa qator jihatlarni o'z ichiga oladigan pragmatik, g'ayriinsoniy omillarni, shuningdek, muloqotchilarning yuqori darajadagi bilimlarini nazarda tutadi.

²⁷ G'afurov I., Mo'minov O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi. -T.: Tafakkur Bo'stoni, 2012. B.147.

Ko'plab grammatik muammolar aynan grammatik bo'lmay, leksik muammolar bilan ham bog'liq. Shuning uchun ham ularni leksik-grammatik deb hisoblash o'rinliroq. Ushbu paragrafda tarjima jarayonida qiyinchilik tug'diruvchi so'z turkumlari bilan bog'liq savollar ko'rib chiqiladi.²⁸

Tarjimonlar shuni yodda tutishi kerakki, ingliz va o'zbek tillaridan otlardagi birlik va ko'plikning qo'llanilishi har doim ham mos kelavermaydi. Ba'zi mavhum otlar ingliz tilida konkret manoda ishlatilib, sanaladigan ot bo'lib, ko'plik shaklda ishlatiladi. Masalan,

- *A finely written novel about the lives and struggles of the people of Trinidad*
- *Trinidad xalqi hayoti va kurashi haqida yozilgan ajoyib roman. O'zbek tilida hayot so'zi ko'plik shaklda ishlatilmaydi.*

Quyidagi misollar ham shunga o'xshash. Masalan,

- *"Never have we tasken so many peaceful initiatives as in the past three years" Mr. Gromyko said.*
- *Bu hali hech qachon oxirgi uch yildagi kabi ko'p marta tinchlik tashabbusi bilan chiqmaganlik dedi Tromiko.*

O'zbek tilida tashabbus so'zi ko'plikda qo'llanilmaydi.

- *This policy of strength involves serious risks.*
- *Bu siyosat jiddiy oqibatlarga olib keladi.*²⁹

Tavakkal mavhum oti ko'plik shaklda qo'llanilmaydi va gapning tarjimada mazmunini berish uchun oqibat so'zi ishlatilgan. Agar fikrni to'g'ri ifodalash uchun ko'plik son zarur bo'lsa, tarjimon ko'plik sondagi qo'shimcha so'z kiritish mumkin. Masalan, tarjimada industries, policies kabi ko'plik sondagi so'zlarga duch kelish mumkin. Ba'zan ingliz tilidagi birlik sondagi ot o'zbek tiliga ko'plikda bo'lishi mumkin. Ingliz tilida eye, lip, ear, cheek, hand, foot so'zlari birlik sonda ishlatiladi. Masalan,

- *Her cheek blanched – uning yanoqlari oqarib ketdi.*
- *Young Jolyon's eye twinkled (Yosh jollonning ko'zlari charaqlab ketdi.)*

²⁸ G`afurov I., Mo`minov O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi. -T.: Tafakkur Bo'stoni, 2012. B.148.

²⁹ Musayev Q. Tarjima nazariyasi asoslar: Darslik. T.: O'zbekiston Respublikasi FA"Fan" nashriyoti, 2005. – B.321.

- *Your lip is trembling and what is there upon your cheek? (Lablaringiz titrayapdi, yanoqlaringizdagi nima?)*³⁰

Ingliz tilida “every” olmoshi birlik sondagi otlar bilan ishlatiladi. O’zbek tilida esa “every” (“hamma”) olmoshi ko’plik sondagi ot bilan ishlatiladi. Har bir tilda aniqlik va noaniqlik tushunchasi bor, ammo bu aniqlik va noaniqlik grammatik vositalar, yordamchi so’zlar, ya’ni artikllar bilan berilmaydi. Ingliz tilida esa artikl o’z o’rniga ega. O’zbek tilida artikl tushunchasi mavjud emas. Quyida berilgan misollarda ingliz tilidagi artiklning turlicha manolarini tarjimada berilishini ko’rish mumkin.³¹

- *He had not an enemy on earth. (Uni dunyoda birorta ham dushmani yo’q edi).*

Bu holatda noaniq artikl “bir” “biror” ma’nosida kelgan.

She is a Mrs. Erlynne. (U qandaydir Missis Erlin) - bu misolda noaniq artikl “allaqanday”, “qandaydir” ma’nosida kelgan.³²

- *Now that the law has been passed... the friendly recommendation of a foreign government can only be regarded as interference in the internal affairs of Persia. (Endi qonun qabul qilingach, har qanday xorijiy hukumatning do’stona tafsiyalari Eron ichki ishlariga aralashuv sifatida ko’riladi.)*³³

Bu misolda noaniq artikl “any” noaniq olmoshi ma’nosida kelgan.

Aniq artikl ko’rsatish olmoshi vazifasini bajarib, atoqli va turdosh otlar oldidan ishlatiladi. Masalan,

- *There is no harmony between the two foreign powers in Persia. (Eronga nisbatan ushbu ikki hukmronlik o’rtasida uyg’unlik yo’q.)*³⁴

Ingliz va o’zbek tillaridagi egalik, noaniq olmoshlarining qo’llanilishida o’xshashliklar mavjud. Masalan,

- *He has a large family - Uning katta oilasi bor;*

³⁰ Musayev Q. Tarjima nazariyasi asoslar: Darslik. T.: O’zbekiston Respublikasi FA”Fan” nashriyoti, 2005. – B.321.

³¹ Musayev Q. Tarjima nazariyasi asoslar: Darslik. T.: O’zbekiston Respublikasi FA”Fan” nashriyoti, 2005. –B.322.

³² Musayev Q. Tarjima nazariyasi asoslar: Darslik. T.: O’zbekiston Respublikasi FA”Fan” nashriyoti, 2005. –B.322.

³³ Musayev Q. Tarjima nazariyasi asoslar: Darslik. T.: O’zbekiston Respublikasi FA”Fan” nashriyoti, 2005. –B.323.

³⁴ O’zbekistonda tarjimachilik. - T, O’ZSSR, “Fan” nashriyoti, 1988. – B.37.

- *He had a large family - Uning katta oilasi bor edi.*

Majhul nisbatdagi gaplarda olmoshlarning tarjimadagi turlari o'zgarishini quyidagi gaplarda ko'rishimiz mumkin.

I am told – menga aytishdi, She was expected – uni kutishgan edi.

*He was sent for – unga jo'natishdi.*³⁵

Misollarda ingliz tilidagi kishilik olmoshlari o'zbek tiliga tarjima qilinganda tushum kelishigidan olmosh bilan almashtirilgan.

Shuningdek, "It" olmoshi tarjimada ba'zi qiyinchiliklar tug'diradi, chunki, "It" olmoshining vazifasi turlicha "It is known", "It seems" "It is essential" kabi shaxssiz gaplarda "ma'lumki", "muhiimi", "ko'rinib turibdiki" so'z birikmalari bilan tarjima qilinadi.³⁶

Ingliz tili boshqa tillardan farqli ravishda, turli konstruksiyalarga boy bo'lib, ular yordamida so'zlovchi ish-harakatga, hodisaga o'z munosabatini (ya'ni xohish, istak, ehtimollik, noreallik tushunchalari bilan bog'liq bo'lgan) ifodalashi mumkin. Lingvistik nuqtai-nazardan noreallikni ifodalashning asosiy usullari mavjud: grammatik va leksik. Noreallikni ifodalashning grammatik vositalariga modal fe'llar kiradi. Leksik vositalarga ravish va ega qo'llanilishi kiradi. Shuni ta'kidlash lozimki, ingliz tilida shartlilikni ifodalashda nafaqat shartli tuslanish qo'llaniladi, balki, keng spektrdagi turli-tuman konstruksiya ishlatiladi. Ular umumiy nomga ega noreallikni ifodalovchi shakllardir (Forms Expressing Unreality). Masalan, "should" (I-shaxs birlik va ko'plik uchun) va "would" (boshqa shaxslar uchun) infinitiv kelgan hollarda quyidagicha tarjima qilinadi:

*I should be glad if you would tell me what progress you have made – Men xursand bo'lar edim, agar menga qanday muvaffaqiyatga erishganingizni aytib berganingizda.*³⁷

"Should" (I shaxs birlik va ko'plik uchun) yoki "would" (boshqa shaxslar uchun) perfekt, infinitiv bilan ishlatilganda quyidagicha tarjima qilinadi.

³⁵ O'zbekistonda tarjimachilik. - T, O'ZSSR, "Fan" nashriyoti, 1988. – B.37

³⁶ Toshkent Davlat Sharqshunoslik instituti tarjimashunoslik fanidan ma'ruza matnlari. – Toshkent. 2012. – B.55.

³⁷ Hamidov X.X. Tarjimashunoslik fanidan ma'ruza matnlari. – Toshkent. 2012. – B.44.

- *Ah, no, that would have been too careless! (Oh, yo'q, bu o'ta ehtiyotsizlik bo'lgan bo'lardi.)*³⁸

Ushbu shakl ingliz tilida noreallikni ifodalaydi, o'zbek tilida esa hech qachon sodir bo'lmaydigan ish-harakatni ifodalab, buni o'zbek tilida berishni grammatik jihatdan iloji yo'q. "Should" (hamma shaxslar uchun) infinitiv bilan kelganda quyidagicha tarjima qilish mumkin.

- *One more question, Doctor: Would it be possible to introduce a total dose of poison into a chocolate? - Yana bir savol, doktor : Shokoladga o'lim dozasiidagi zaharni solishni iloji bormi?*³⁹

"Would" (hamma shaxslar uchun) infinitiv bilan ishlatilganda:

- *"Oh, I say, I wouldn't do that if I were you," cried Mr. Parker in some concern. ("O, men aytyapman, sizni o'rningizda bunday qilmagan bo'lardim" , - janob Parker tashvishlanib baqirdi.)*⁴⁰

- "May" (might) infinitiv bilan kelganda :

- *I might not be a clue to Mr. Deroulard's death, but here at least was something that was not normal. (Bu janob Doroulardning o'limiga kalit bo'lolmaydi, ammo bu yerda , hech bo'lmaganda nimadir bo'lgan.)*⁴¹

Kitobxonlar tarjimada shavq-zavq uyg'ota olmaydigan asarni muallif tomonidan past saviyada bitilgan deb baholaydi, ya'ni noto'g'ri tarjima kitobxonni chalg'itadi. Tarjimaning vazifasi - asliyat va tarjima tillari leksik, grammatik va stilistik hodisalari o'rtasidagi uyg'un hamda tafovutli jihatlarni puxta o'zlashtira olgan holda, asliyatning shakl va mazmun birligini ona tili vositalari yordamida qayta yaratishdan iboratdir. Bu tamoyilga rioya qilmaslik tarjimada aniqlikning, ifoda me'yorining buzilishiga olib keladi.

Qolaversa, tilning grammatik tuzilishi uning sistemasidagi umumiy muhim jihatdir. Affikslar, grammatik qo'shimchalar va so'z yasalishi, sintaktik modellar, so'z tartibi, yordamchi so'zlar va h.k. kabi tilning grammatik tuzilish elementlari

³⁸ Hamidov X.X. Tarjimashunoslik fanidan ma'ruza matnlari. – Toshkent. 2012. – B.44.

³⁹ Hamidov X.X. Tarjimashunoslik fanidan ma'ruza matnlari. – Toshkent. 2012. – B.45.

⁴⁰ Hamidov X.X. Tarjimashunoslik fanidan ma'ruza matnlari. – Toshkent. 2012. – B.45.

⁴¹ Hamidov X.X. Tarjimashunoslik fanidan ma'ruza matnlari. – Toshkent. 2012. – B.46.

grammatik yoki shakliy ma'noni, leksik ma'nolarning aniq shaklini ko'rsatishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, biror asarni, tekstni yoki shunga o'xshash biror narsani bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilayotganda ko'plab muammolarga duch kelish mumkinligini yuqorida ko'rib o'tdik va ushbu muammolarni hal qilishga urinish tarjimaning chiroyli va samarali chiqishida yordam beradi.

II. BOB. HEDLI CHEYZNING “SEYFDAGI PULLAR” ASARI TARJIMASIDAGI GRAMMATIK QIYINCHILIKLAR TAHLILI

2.1. Hedli Cheyz asarlaridagi o'ziga xos xususiyatlar

Detektiv janr haqida gapirar ekanmiz, odatda bu turdagi asarlarda jinoiy ishlarni qidirish, izquvarlik, murakkab jinoyatlarning ochilishi kabi badiiy tasvirlar ifodalanadi. Detektiv adabiyot - jinoyatlarni ochish jarayoni tasvirlangan hikoya, qissa, romanlar hisoblanadi. Bu janr asoschisi E. Po bo'lib, u o'zining “Morg Ko'chasidagi qotillik” va boshqa novellalarida jinoyatning ochilishi mantiqiy asosda tasvirlanadi. Ba'zi adabiyotshunoslar faqat oldi-qochdi harakatlardan iborat “hazmi yengil” asarlar yaratiluvchi yo'nalish, deb biladilar. Lekin bu fikr to'g'ri emasligini isbotlovchi bir qancha bebaho asarlar borki, ular detektiv adabiyot namunasi bo'lish bilan birga, chuqur ruhiy-falsafiy g'oyalarni ham targ'ib qiladi.

Detektiv janri adabiyoti kecha yoki bugun paydo bo'lgan hodisa emas. Bundan ming yillar avval ham izquvar obrazi va detektiv elementlari mavjud bo'lgan. Izlanishlarimiz davomida detektiv elementlari hattoki mumtoz adabiyotimiz namunalarida ham uchrashini kuzatdik. Detektiv asarlarda ham ko'plab badiiy asarlardagi kabi uchlik bo'ladi. Lekin bu uchlik muhabbat uchburchagi emas, balki jinoyatchi – jabrlanuvchi – izquvar, ba'zi hollarda esa, jabrlanuvchi umuman ishtirok etmaydi va izquvar – jinoyatchi – politsiya xodimlari tarzida harakat olib boriladi. Odatda, izquvar sifatida har xil insonlar: huquqni himoya qilish idoralarida ishlovchilar, yollangan detektivlar, qarindoshlar, do'stlar, jabrlanuvchining tanishlari, ba'zan esa mutlaqo notanish odamlar olinishi mumkin. Haqiqatan ham, insoniyat yaralibdiki, yaxshilik va ezgulik bilan mushtarak holda yovuzlik, jinoyatchilik kabi illatlar ham mavjud bo'lgan, lekin keyingi davrlardagiday taraqqiy etmagan.⁴²

Detektiv hikoyalar - hayot inson qarshisiga ikki yo'l qo'yadi: biri to'g'ri, biri egri yo'l, biri hidoyat, boshqasi esa razolat yo'li. Ulardan birini tanlash imkoni esa

⁴² www.wikipedia.uz

insonning o'ziga berilgan. Egri yo'ldan yurib, jinoyat ko'chasiga kirgan kishi borki, buning jazosini tortishi muqarrar. Bu jazo turlicha bo'ladi: qonun oldidagi javobgarlik, vijdon oldida javobgarlik, odamlar oldida javobgarlik va boshqalar.

Detektiv janriga xos so'z shunday ta'sirga egaki, u hatto zamonaviy, qorishiq san'at turlari qiyofasini ham tubdan o'zgartira oladi. "Detektiv" lotincha "*detego*" so'zidan olingan bo'lib, ingliz tilida "*to detect*" – fosh etmoq, namoyish qilmoq – asosan, badiiy adabiyot va kinematografiyaga dahldor, sirli hodisani o'rganish ustida izlanish olib boradigan va uni o'rganib, sirini fosh etishga yo'naltirilgan janr. Odatda bunday hodisaning asl sababi qonunbuzarlik bilan adolat o'rtasidagi kurashdan iborat bo'ladi va haqiqatning tantanasi bilan yakun topadi"⁴³.

Detektiv janrlarni modellashtirish jarayonlari ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-falsafiy tarix voqeligi tizimi va yozuvchi, u mansub zamon, poetik janr an'analarning ko'lamdor hamda izchil munosabatlarida namoyon bo'ladi. Zamonaviylik va yozuvchi ijodiy talablariga ko'ra, modellashtirilgan detektiv janr tabiiy holatda tarixiy-tipologik xarakter kasb etadi. Negaki, har qaysi yozuvchi biron-bir tarixiy davrning vakili bo'lganidek, muayyan tarixiy manzil-makonga ham dahldor hisoblanadi. Yozuvchi tomonidan milliylik doirasida modellashtirilgan detektiv mazmun falsafa, axloq meyorlari, odamga xos talab va istaklar o'xshashligi bois tipologiklik, umumbashariylik maqomini egallaydi.

Detektiv asarda biron-bir favqulotda jumboqli hodisaning tadqiq qilinish jarayonlari, unda sodir bo'ladigan holat va vaziyatlar, izlanish va yechimlar tasvir etiladi. Detektiv asarning markaziy qahramonlari hisoblanadigan jinoyatchi va jabrlanuvchi hayotiga doir yaqin tarix izquvar obrazi nuqtai nazaridan qayta tiklanadi. Bu yerda detektiv asarga xos muhim belgilarga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, asosan, quyidagi xususiyatlarga urg'u berilgan:

– dalillar to'liq va mukammal bo'lishi, qidiruv so'ngida o'quvchi mustaqil xulosa chiqara oladigan darajada etarli ma'lumotni qamrab olish;

⁴³Xoliqov B.A "XX-asr jahon adabiyoti hikoyalari" G'afur G'ulom nomidagi matbaa ijodiy uyi". - Toshkent—2009. – B.226.

- voqea kechadigan shart-sharoitlarning o'quvchi uchun tanish, real model bilan mosligi;
- obrazlar, personajlar holat va harakatlarida ayniyat (moslik)ning mavjudligi;
- an'anaviy obrazlar mantiqiga putur yetkazmaslik, ya'ni hikoyanavis va izquvarni jinoyatchiga aylantirishning mumkin emasligi;
- asarda yuksak axloqiy, ma'naviy ideallarning talqin etilishi. Asar yomonlikning jazoga hukm qilinishi va adolat tantanasi bilan yakun topishi.

Yuqorida keltirilgan umumiy jihatlar detektiv asarning mukammal namunalariga xos badiiy xususiyatlardan kelib chiqqan⁴⁴.

Detektiv obrazlar tizimi va uning badiiy matndagi ifodasida "Izquvar obrazi" muhim rol o'ynaydi. Unda izquvar-qahramon markaziy obrazlardan biri sifatida o'rganildi. Izquvar obrazining kuzatuvchanligi, nihoyatda topqirligi va voqelikdan umumiy xulosalar yasashi kabi qirralariga diqqat qaratildi. Izquvar tergov olib borishni uddalash barobarida asar voqealarida ijobiy natijaga erishishga qodir personaj ham hisoblanadi. Kamdan-kam odamlarda uchraydigan favqulodda qobiliyat qahramonning sirli jinoyatchini qidirish ishiga aralashuviga asos bo'ladi. Shaxsiy detektivning rasmiy politsiyadan farqli jihati shundaki, politsiyachilar chidamli va adolatli bo'lsa-da, ayrim tafsilotlarni farqlashda asosiy qahramonda mavjud bo'lgan tug'ma qobiliyat yo'qligi sababli oqsaydi. Bundan tashqari, ular o'zlarining rahbarlariga bo'ysunadi. Rahbarlar esa ulardan ishni tezroq yopishni talab qilib, qisqa muhlat beradi. Ana shunday qiyin vaziyatlarga duch kelganida ular mazkur tizimda faoliyat yuritmaydigan, nisbatan erkin, ammo qonunga rioya qiluvchi va boshqalardan ham shuni talab qiladigan iqtidorli shaxs yordamiga muhtoj bo'lib qoladi. Voqea detektiv qahramoni va turli savollarga (Kim o'ldirdi? Qanday qilib? Nima uchun? Qachon?) javob qidiradigan kitobxon o'rtasida dialog shaklida hikoya qilinadi.

⁴⁴ Xoliqov B.A. "Detektiv-janri" //Buxoro Davlat Univestiteti Ilmiy axborotnomasi-Buxoro, 2014. – №4. – B.67-73 (10.00.00 №9).

Detektiv voqea har doim dramatik to'qnashuvni o'z ichiga oladi va bunda hayotning dramatik vaziyatlariga e'tibor qaratiladi. Detektiv inson sifatida intellektual salohiyati baland, bilimli, malakali, o'z hayotiy prinsiplariga sodiq shaxs; jinoyatni fosh etishda o'z uslubini yarata oladigan izquvar; o'zigagina xos sifat va xarakterga ega insondir.

Detektiv janrining keyingi turi sifatida "Qotil obrazi" tadqiq qilindi. Muayyan detektiv asarlarda bu rolning diskursiv ahamiyati konkretlashgan rol nominasiyalari murderer, criminal, yordamida amalga oshiriladi. Bulardan eng keng tarqalgani murdererdir. Qotil (murderer)ning butun asar davomida boshqa personajlar orasida «g'oyib» bo'lishi, buning oqibatida boshqa personajlarning qotillikda gumon qilinishi, qotilning ruhiy-psixologik holatlari kabi masalalar tadqiqiga diqqat qaratildi.

Mazkur janrning yana bir ko'zga tashlangan turi "Maqtul" obrazidir. Maqtulning abstraktlashuvi kommunikativ shaxs modeli bo'lib, detektiv adabiyotda boshqa shaxslar bilan o'zaro aloqada yon bosmaydigan o'ziga xos personajlardan tanlanadi; ko'pincha ana shu yon bosmaslik uning o'limiga sabab bo'ladi.

Detektiv janrga xos nazariy xususiyatlar dunyo olimlari qarashlari asosida o'rganib chiqildi. Ham geografik, ham ma'naviy-axloqiy jihatlari yozuvchining mohiyatiga va adabiy janriga ko'ra o'zaro yaqin asarlarining taqqoslanishi natijasida quyidagi muhim umumlashmalar yuzaga keldi:

Boshqa an'anaviy janrlardan farqli ravishda, detektiv janr qonun buzilishi, jinoyatchilik, uning fosh etilishi, adolatning qaror topishi uchun kurash motivlari badiiy talqin qilinadi. Ularda zamon va makonning retrospektiv shakli etakchilik qilishini kuzatish mumkin. Sujet, qahramonlar tabiati va asar badiiy konseptsiyasi shu zamon doirasida talqin etiladi.

Real voqelik detektiv janrning obykti sifatida badiiy modelidir. Real voqelik detektiv janrning obykti sifatida badiiy model asosini tashkil etadi. Yozuvchi mansub davr va millat, uning badiiy mahorati, iste'dodi, to'plagan ilm va tajribalari janr modeli shakllanishining muhim vositalaridir. Hikoya

qilinmoqchi bo'lgan voqelikning ko'lami, yozuvchining badiiy niyati, o'quvchiga etkazilmoqchi bo'lgan poetik fikr salmog'i detektiv asar janrini belgilaydi. Shu jarayonlarda shakllangan detektiv mundarijalariga xos tipologik xususiyatlar detektiv model strukturasini tashkil etadi. Bunda obyekt –subyekt – model uchligi detektiv janr tizimi sanaladi.

Detektiv asar mohiyati qotillik sodir etilishi va qotilning qo'lga olinishidagina namoyon bo'lmaydi. Ularda, shubhasiz, insonparvarlik g'oyalari, insonning shaxsiy muammolari, ruhiyatida yuz beradigan o'zgarishlarni, yovuzlik va ezgulik o'rtasidagi kurash, jinoyatchining ko'nglida ro'y beradigan ma'naviy, psixologik holatlar aks etadi. Bunday asarlar ham tarbiyaviy, ham adabiy-estetik, ham axloqiy muammolarni talqin etishi bilan boshqa yo'alishtdagi badiiy adabiyot namunalaridan qolishmaydi.

Izquvar, qotil, maqtul obrazlari detektiv janr mohiyatini belgilovchi mustaqil poetik komponentlardir. Ular badiiyat olamida mantiqan bir konsept atrofida markazlagan bo'ladi.

Detektiv asarlardagi uslubiy o'ziga xoslik faqat badiiy asar tiliga, adib tomonidan qo'llanilgan iborat, trop yoki hikmatli so'zlargagina dahldor emas, bunday asarning syujeti va kompozitsion qurilishi ham uslubiy jihatdan kutilmagan hodisalarning uyushtirilishi bilan ajralib turadi⁴⁵.

Jahon adabiyotida detektiv janr yozuvchilari juda ko'p. Masalan, Angliya adabiyotiga nazar tashlaydigan bo'lsak, unda mashhur britaniyalik yozuvchi Jeyms Hedli Cheyzni ko'rishimiz mumkin. Zamonasining mashhur yozuvchisi Hedli Cheyz 1906-yil 24-dekabr kuni Londonda tug'iladi. Britaniyalik yozuvchi 93 ta detektiv romanlar muallifidir. Haqiqiy ismi Rene Brabazon Reymond (ing. Rene Brabazon Raymond). Shuningdek "Raymond Marshall", "James L. Dogherty", "Ambrose Grant" taxalluslari ostida ham ijod qilgan. Bo'lajak mashhur adib nafaqadagi ofitser oilasida dunyoga keldi, hamda Rochesterdagi qirollik maktabida va keyinchalik Kalkuttada ta'lim oldi. U 18 yoshidayoq o'z uyini o'qish tufayli

⁴⁵ Xoliqov B.A. "Detektiv adabiyot taraqqiyoti va uning jahon adabiyotida tutgan o'rni"// Xorijiy filologiya: til, adabiyot, ta'lim.- Samarqand 2013. – №4. – B. 43-45 (10.00.00 №11).

tashlab ketdi. U bir nechta kasblarni egalladi, ko'p marta ish joylarini o'zgartirdi va nihoyat ko'p tomli "Bolalar ensiklopediyasi" kitobi uchun agent bo'lib ishga kirdi. Yaqin bir necha yil ichida Cheyz nufuzli kitob savdosi firmasi "Simpkin va Marshall"da ishladi. Hayoti davomida u ko'plab qiyinchiliklarga uchragan bo'lishiga qaramay, Cheyz bu qiyinchiliklarni yengib o'tishga bor kuch-g'ayrati bilan harakat qildi.

1939-yili "Miss Blendishga hech qanday orxideya" deya nomlangan ilk romanini yozgan. Roman tez orada bestsellerga aylangan. Jeyms Xedli Cheyz 80 ga yaqin kitob yozgan. Uning asarlari voqealari asosan AQShda bo'lib o'tadi.

Cheyzning romanlari qahramonlari: zo'ravon Korrigan; kaliforniyalik izquvar Vik Melloy; MRB agenti Mark Girland; millionery Don Miklem; Xelga Rolf va boshqalar. Uning detektiv janrda yozgan asarlari juda ko'p, shuningdek, uning asarlarida asosan ayollar obrazi tasvirlangan. O'z davrining mashhur detektiv janr yozuvchisi 1985-yilda o'z ona vatani Londonda vafot etadi. Ammo, uning vafotidan so'ng ham, u yozgan asarlar kitobxonlar qo'lidan tushmaydi.

Hozirda ham ko'plab kitobxonlar asosan, uning detektiv asarlarini haligacha sevib o'qishadi. Ana shunday detektiv janrda yozilgan asarlardan biri "Seyfdagi pullar" ("Come easy, go easy") romanidir. Ushbu roman 1960-yilda yozilgan. Asar bosh qahramonlari Chet Karson, Genri Kuper, Jeyni hamda Eshli Armzlardir. Asarni qisqacha mazmuni shundan iboratki, hammasi seyfni ochishdan boshlanadi. Voqealar Lorens seyflar korporatsiyasi tungi xizmat paytida bo'lib o'tadi. Pulga muhtojlik, boylikka o'chlik, nafs balosi ushbu jinoyatga yo'l ochib berdi. Jinoyatga esa jazo tayin. Ha, birgina nojo'ya qadam hayotingni ostin-ustun qilib tashlashi mumkin. Zotan, xatolaringni anglab, to'g'ri yo'ldan yuraman, desang-da, ana shu ilk qadam hayotingga soya solib turadi. Bu qilmishing keyingi noxush voqea-hodisalar uchun debocha bo'ladi. Yana seyf, yana pullar, yana jinoyat. Ne tongki, hayotingga yangi kirib kelgan insonlar ham jinoyatga undaydilar. Orzu-xayollar, yaxshilikka intilish, iztiroblar, muhabbat va hiyonat, eski do'stlikning bitmas jarohatlari...⁴⁶

⁴⁶ http://www.elib.bsu.by/bitstream/123456789/46792/1/holevinskaya_2011_sbornik7_tom2.pdf

Asar xotimasi kitobxonni larzaga soladi. Muallif hayotiy haqiqatni bor bo'yicha ochib beradi. Ushbu asarni o'zbek tiliga bevosita Fathulla Namozov mohirlik bilan tarjima qiladi va bu orqali u asarning asl mohiyatini kitobxonlarga yetkazib berdi desak also mubolag'a bo'lmaydi.

Qolaversa, Fathulla Namozov "Seyfdagi pullar" asaridan tashqari, Hedli Cheyzning boshqa detektiv asarlarini ham juda chiroyli tarzda tarjima qilgan. Masalan, "Sirli xonim". Yozuvchining ko'pgina asarlari ayollar bilan bog'liq. Asarning qisqacha mazmuni haqida gapiradigan bo'lsam, hayotda shunday o'yinlar bo'ladiki, eshitib hayratga tushasan. Ba'zida bilib-bilmay o'zing ham ana shu izdihomga o'ralashib qolishing mumkin. Kimdir seni chuv tushirayotganini anglab eta olmaysan. Odamlar naqadar ayyor, ular kimdan qay tarzda foydalanishni juda yaxshi bilishadi. Intihoda esa, begunoh odamlar jabrlanishadi ammo, baribir yomonlikning umri qisqa deganlaridek kimdir baribir buni fosh etadi.⁴⁷ Cheyz uslubiga xos o'tkir syujetli voqealar, kutilmagan sarguzashtlar, sirli qotillik tafsilotlari bu asarda ham o'z ifodasini topgan. Kitobxon chapdast qahramon Nik Meysonning abjir, chaqqon, kuchli iroda egasi hamda naqadar sodda, ishonuvchan ekanligiga guvoh bo'ladi.

Shuningdek, tarjimon Fathulla Namozov tomonidan Hedli Cheyzning "Dang'illama hovlidagi o'lim" asari ham tarjima qilingan. Bu asar haqidagi fikrga to'xtaladigan bo'lsak, oddiy mushtlashuvdan boshlangan mashmasha katta izquvarlikka sabab bo'ladi. Sirli qotillik, bir-biridan tushuniksiz guvohliklar, nohaq ayblovlar va tuhmat adolatsizlikka olib keladi. Bu ishga ayollarning aralashuvi voqealarni yanada chigallashtirib yuboradi. Shov-shuvli jinoyat ommaning e'tiborini tortadi. Uni ochish uchun kattagina pul tikiladi. Biroq jinoyatchilarni topish oson emas. Ammo o'z ishinining ustasi bo'lgan izquvarlar bu ishni uddasidan chiqa olishadi.

Shuningdek, Hedli Cheyzning asarlarini Fathulla Namozovdan tashqari Fayzi Shohismoil ham tarjima qilgan. Ammo, Fayzi Shohismoil Fathulla

⁴⁷ www.wikipedia.uz

Namozovdan farqli o'laroq ushbu asarlarni ingliz tilidan o'zbek tiliga rus tili orqali bilvosita tarjima qilgan. Jeyms Hedlining yana bir mashhur, ko'pgina kitobxonlar e'tiborini tortgan detektiv asari "Gonkongdan kelgan tobut"dir. Yozuvchining aynan shu asarini Fayzi Shohismoil tarjima qilgan. Dunyo miqyosida mashhur hisoblangan ushbu asar o'tkir syujetga, turfa sarguzashtlarga boyligi bilan ajralib turadi. Unda tinib-tinchimas izquvar Nelson Rayanning sirli qotillik tafsiloti bilan bog'liq voqealarga o'ralashib qolishi, buning natijasida kutilmagan dahmazalarga duchor bo'lishi, Gonkongdek ulkan shaharda surishtiruv olib borishi, razil va manfur kimsalarga qarshi kurashi aks etadi. Rayan haqiqatning tubiga etish uchun o'z hayotini xatarga qo'yadi, bir necha bor o'limga chap beradi.

Bundan tashqari, taniqli Amerika yozuvchisi, detektiv janri ustasi Jeyms Hedli Cheyzning "Uydan tashqari oqshom", "Buni qushlarga gapir", "Shisha ichidagi panja", "Murda ham o'ynab bersin" singari romanlari butun dunyo bo'ylab tarqalgan.

Adib bugungi kun bilan hamohang hodisalarni, ba'zan chet davlatlarda, xususan, Amerika va Angliyada ko'zga tashlanib turadigan voqealarni, ma'naviy-axloqiy illatlarni, tuban insonlar taqdirini qalamga olar ekan, albatta, qisman bo'lsada hayot haqiqatiga tayanadi, uni bor bo'yicha tasvirlashga harakat qiladi. Qahramonlar xarakter qirralarini yoritishda ichki dunyosi tasviridan foydalanish usulini hamda yozuvchi o'zining detektiv yozuvchiligidan foydalangan. Natijada, asar qahramonlarini o'ziga xos dunyosi va obrazlari orqali yaqindan tanib borishimiz mumkin..

Biz mashhur yozuvchi Hedli Cheyzning detektiv asarlarini hamda uning ayrim asarlaridagi grammatik muammolarni o'rganar ekanmiz, asarlari orqali biz yozuvchining detektiv asarlarni naqadar ustalik bilan yozganini guvohi bo'lishimiz mumkin. O'ylangan voqealar hamda tanlangan qahramonlar ham asarlariga qaysidir ma'noda jon bag'ishlagan, - deb bema'lol ayta olishimiz mumkin. Uning asarlari mazmunidan qaysi janrda yozilganligini bilib olish juda oson.

Bugungi kunda ham mashhur detektiv yozuvchi Jeyms Hedli Cheyzning asarlari ko'pgina kitobxonlarni qiziqtirib kelmoqda. Ayniqsa uning asarlarini

Angliya va Amerika kitobxonlari qiziqib, maroq bilan o'qishadi. Hattoki, uning ko'pgina asarlari, ayniqsa, detektiv janrga oid asarlarining ko'pchiligi film qilib ishlangan. Shundan ham yozuvchining asarlari ko'pchilikning diqqat markazida bo'lganligi va hozirda ham bu qiziqishning kamaymaganligini guvohi bo'lishimiz mumkin.

2.2. “Seyfdagi pullar” asari tarjimasidagi grammatik muammolar

Tarjima – bu faqat aloqa vositasigina emas, balki o’ziga xos lisoniy-uslubiy va terminologik boy itishning qudratli omili ham hisoblanadi. Ayniqsa, hozirgi davrda xalqlar o’rtasida hamkorlik, hamjihatlik, o’zaro va har tomonlama aloqalar nihoyatda jadallashib, zo’rayib borayotgan asrda ko’p millatli madaniyatning tarjimasiz taraqqiy etishini tasavvur qilish qiyin. Yangi avlodni tarbiyalashda adabiyot va tarjima ham shunchalik ahamiyatiga molik ishdir. Bu borada bizning yozuvchilarimiz tarjimachilik sohasida ham barakali mehnat qilmoqdalar.

Tarjima bu qayta yaratish san’ati, yuksak badiiy ijoddir, ijod bo’lganda ham tarjima muallifidan izlanish, mehnat, sabr-toqat talab qiladigan, turli xil materiallar ustida mashaqqatli ish olib borishni talab qiladigan o’ziga xos ijoddir. Tillararo muloqotning alohida turi bo’lmish tarjima turli tillar matnlarining mazmunan teng qiymatliligini taqazo etadi. Asliyat va tarjima matnlari mazmunining o’zaro mos kelishi zarurligi ekvivalentlikni tarjimaning asosiy sharti ekanligini ko’rsatadi. Tarjima amaliyoti sirlarini mukammal egallagan va uning nazaryasi bilan puxta qurollangan tarjimongina asliyatga ekvivalent tarjimalar yarata oladi.⁴⁸

Tarjimon mehnatini hech qachon ikkinchi darajali deb tushunmaslik kerak. Uning mehnati yozuvchi mehnati bilan barobar. Ulug’ Gumboltning “til-faoliyat” degnan mashhur aforizimi hammadan ko’ra ko’proq tarjimonlarga tegishlidir. Tarjimon tilni harakatga keltiradi. Uning mehnati tilni faoliyat manbayiga, faoliyatni esa til manbayiga aylantiradi. Zotan tarjimon mehnati bois tillarning xazinalari yangi so’zlar, terminlar, ifodalar, gapning g’aroyib, ilgari ko’rilmagan, sinalmagan sintaktik qurilishlari bilan boyiydi. Tarjimonning ijodiy mehnati bois til yangilanadi.

Albatta tilning rivojlanishida tarjima va tarjimachilikning o’rni beqiyosdir. Tarjima sohasida yutuqlar bo’lgani sari, kamchiliklar va nuqsonlar ham kam emas. Asliyatdagi asarni biror tilga tarjima qilish jarayonida turli xil muammolarga duch kelinadi. Har bir tarjimon nafaqat tarjima qilayotgan mamlakatni tilini yaxshi

⁴⁸ Toshkent Davlat Sharqshunoslik instituti tarjimashunoslik fanidan ma’ruza matnlari. – Toshkent. 2012. – B.48.

bilishi kerak, balki, o'sha mamlakatni urf-odatini, madaniyatini, milliy mentalitetini yaxshi bilishi lozim. Agarda tarjimon tilni yaxshi bilsa-yu, lekin, o'sha davlatni madaniyatini, urf-odatini yaxshi bilmasa tarjima qilish jarayonida xatoliklarga duch keladi va asarni tushunib, anglab yetmagan holda tarjima qiladi. Natijada asarning ma'no-mazmuni o'zgarib ketadi. Nafaqat tarjimon asarni tarjima qilish jarayonida o'sha mamlakatni urf-odati, madaniyatini bilib qolmasdan, asar yozilgan vaqtdagi mamlakat hayoti, jamiyatdagi o'zgarishlardan ham xabardor bo'lmog'i lozimdir. Biz ushbu kurs ishimizda tarjimada uchraydigan grammatik muammolarni ko'rib chiqar ekanmiz, buni mashhur ingliz yozuvchisi Jeyms Hedli Cheyzning "Seyfdagi Pullar" asari misolida yanada chuqurroq tahlil qilamiz.

Grammatik me'yorlarga rioya qilish, avvalo, jumla shakllarini yaxshi bilish va ulardan mohirona foydalanishni, so'ngra jumladagi o'zak, negiz va qo'shimchalar o'rtalaridagi munosabatlarning to'g'ri bo'lishini, ega va kesimning o'zaro mosligini, ikkinchi darajali bo'laklar xususiyatlariga yaxshi e'tibor berilishini hamda so'z tartibining sondaga muvofik bo'lishini talab etadi.⁴⁹

Tarjima tili jumla qurilishi qoidalariga rioya qilmasdan, asliyat tili ta'siriga berilib, matn tarkibiga ona tili me'yori darajasida bo'lmagan ifoda vositalarini kiritish ham tarjima sifatini tushirib yuboradi.

Har bir tilning uziga xos xususiyatlarga ega ekanligi asliyatda foydalanilgan grammatik shakllarni tarjima tiliga ko'r-ko'rona ko'chirishni emas, balki ular vositasida ifoda etilgan fikrlarni muqobil shakllar yordamida vazifaviy qayta tiklashni taqozo etadi. Tarjima amaliyotiga shu nuqtai nazardan yondashilgandagina tarjima tilida asliyatdagi grammatik shakllarga mos qurilishli vositalarning yo'qligi o'z ahamiyatini yukotadi. Binobarin, ikki til shakllarining o'xshashligi tarjimada rasmiy xususiyat kasb etadi.

Til madaniyatiga rioya kiladigan, didi baland badiiy ijod sohiblari yuksak saviyali asarlar va tarjimalar yaratib, adabiy tildan savodli foydalanishning ajoyib namunalarini namoyish qilmoqdalar. Ammo kator asliyat, ayniqsa tarjimaviy

⁴⁹ Aznaurova E.S., Abdurahmonova Kh.I. va boshqalar. Translation theory and practice . -Toshkent: O'qituvchi,1989. – B.139.

asarlar tilini kuzatish ayrim qalamkashlarning adabiy til imkoniyat va me'yorlaridan ba'zi hollarda unumli va o'rinli foydalana olmayotganliklarini ko'rsatmoqda. Ular faqat leksik va uslubiy chalkashlik va galizliklargagina emas, balki tilning grammatik qonun-qoidalariga amal qilishda ham ko'pgina xatoliklarga yo'l qo'ymoqdalarki, bu kamchiliklar nutqning qonuniy-tabiiy jarangdorligini buzishdan tashqari, ma'noning noto'g'ri, ba'zan mutlaqo qarama-qarshi holda, talqin etilishiga ham sabab bo'lmoqda.

Ingliz va rus tillarida rod turkumining mavjudligi tufayli odamlarning qaysi jinsga mansubligini kishilik olmoshlari vositasida farqlash mumkin. O'zbek tilida rod turkumining yo'qligi esa kishilik olmoshlariga bunday imkoniyatni bera olmaydi. Masalaga ilmiy yondashilmasdan, tarjima birliklarining lug'aviy muvofiqligi asosidagina amalga oshiriladigan bo'lsa, «he» va «on» xam, «she» va «ona» ham o'zbekchaga «u» tarzida o'giriladiki, bunday holda (asliyatdagi jumlada ham ayol, ham erkak kishi nazarda tutilib, ular kishilik olmoshlari yordamida kursatilgan bo'lsa) «u» ayolni erkakdan farqlay olmay qoladi, natijada, kitobxon oldida «kim kimni», «kim kimga» degan haqli savollar ko'ndalang bo'ladi. Ayrim tarjimonlar masalaning bu darajada nozik ekanligiga e'tibor bermasdan, ba'zan personajlarning qaysi jinsga oidliklarini kitobxonlarga yetkazib bera olmaydilar. Ammo aksariyat tarjimonlar masalaga ilmiy-ijodiy yondashganlari holda, ko'pincha kishilik olmoshlarini personajlarning nomlari yoki familiyalari bilan almashtirib jins farqini yaratadilar.⁵⁰

Sonlarning asosiy xususiyatlaridan biri shundan iboratki, ular sanaladigan otlargagina birikib, miqdor tushunchasini anglatib keladilar. Sanalmaydigan otlarning miqdor tushunchasini aks ettirmasliklari tufayli ularga sonlar birikmaydi, balki sonlar ayni otlarning hajm va vaznini bildiruvchi so'zlarga qo'shilib ishlatiladi.

Ingliz tilida aniqlik va noaniqlik “a/an”, “the” artikllari orqali ifodalanadi. Lekin o'zbek va rus tillarida aniqlik va noaniqlikni ifodalash uchun leksik va sintaktik vositalardan foydalanamiz. Misol uchun:

⁵⁰ Hamidov X.X. Tarjimashunoslik fanidan ma'ruza matnlari. – Toshkent. 2012. – B.141.

Qandaydir ahamiyati bor deysizmi? Buning juda katta ahamiyati bor.

A difference? It will make the difference.

To`liq sintaktik muvofiqlik tuzilishdagi muvofiqlik bo`lib gapdagi so`zlar tartibi. Misol uchun:

Adj. + noun = red pen – qizil ruchka – красная ручка.

Subject+noun=he laughed – u kuldi – он смеялся.

Qisman sintaktik muvofiqlik ma`noning muvofiqligi, ammo tuzilishida farq qiladigan deb tushuniladi⁵¹. Misol uchun:

Glass + tube – N+N, shisha naycha N+N, стеклянная труба – Adj + N /

Sintaktik muvofiqlikning yo`qligi deganda tarjima uchun manba tilda ishlatiladigan, lekin tarjima qilinayotgan tilda ma`lum sintaktik tuzilishlarning bo`lmasligi tushuniladi. Masalan:

I heard the door open — Men eshikning ochilishini eshitdim. – To`ldiruvchi ergash gap.

Bu yerda o`rin almashtirish, o`zgartirish kiritish, tushirib qoldirish va qo`shimcha qo`shishdan foydalanilgan.

Grammatik mos bo`lmaslik deganda bitta yoki boshqa grammatik shakl yoki konstruksiyalar o`girilayotgan tilda mavjud bo`lmasligi, shakl va konstruksiyalar ishlatilishida moslik bo`lmasligi, so`zlarning birikishida farq bo`lishi, bir xil ma`noga ega bo`lgan so`z turkumlarining bo`lmasligi tushuniladi. Transpozitsiya – ayni tildagi lingvistik elementlar tartibi yoki o`rnini o`zgartirishdir.

Tilning grammatik tuzilishi uning sistemasidagi umumiy muhim jihatdir. Affikslar, grammatik qo`shimchalar va so`z yasalishi, sintaktik modellar, so`z tartibi, yordamchi so`zlar va h.k. kabi tilning grammatik tuzilish elementlari grammatik yoki shakliy ma`noni, leksik ma`nolarning aniq shaklini ko`rsatishga xizmat qiladi. Tarjima qilish jarayonida bu ma`nolarni ifodalash muhim muammodir. Turli xil tillarning grammatik shakllari juda kam hollarda ularning ma`no va vazifasiga mos keladi. Qoida sifatida faqatgina qisman ekvivalentlikka ega, bu esa grammatik ma`nolar grammatik shakllar orqali ifodalanishidir, shunga

⁵¹G`ofurov I., Mo`minov O. Qambarov N. Tarjima nazariyasi. – Toshkent: Tafakkur Bo`stoni, 2012. – B.137.

qaramasdan, ikki til oʻzaro oʻxshashdek koʻrinadi, faqatgina ularning maʼnolaridagi baʼzi qismlari mos keladi va oʻxshash maʼnolar oʻzaro farq qiladi. Misol uchun: otlardagi son kategoriyasi ingliz tili, rus tili, oʻzbek tilida ham bir-biriga mos keladigandek koʻrinadi, aslida esa juda koʻp kelishik qoʻshimchalarining qoʻllanishida bir-biriga mos kelmaydi.⁵²

Birinchi muammo aniq tarjima qilishning imkoni yoʻqligidir. Tillardagi soʻzlarning va grammatik tuzilishlari odatda oʻxshash boʻlmaydi. Buni “logos” soʻzini misol keltirish orqali izohlaymiz. Ingliz tilidagi hech qaysi soʻz unga ekvivalent boʻla olmaydi. U soʻz, fikr mulohaza aytish, muhokama qilish va boshqa maʼnolarni anglatadi. Antonomik tarzda qilingan tarjima grammatika nuqtai-nazaridan olib qaraganda u nafaqat leksik, balki grammatik transformatsiya natijasi hamdir. Misol uchun:

Take it easy – небеснокойся – xavotir olma

Grammatik transformatsiyalar turli xil grammatik va leksik koʻrinishlarning paydo boʻlishiga sabab boʻladi. Baʼzi hollarda ular bir-biriga juda yaqin bogʻliq va leksik-grammatik xarakterga ega boʻladi.

Tarjima qilishda grammatik transformatsiyadan keng foydalanishning sababi rus yoki ingliz tilidagi gap ingliz tilining grammatik tuzilishi bilan mos kelmasligida deb izohlanadi: gapda soʻz tartibi, gaplarning joylashuv tartibidagi farq bosh gap va ergash gap tartibidagi farqdir.

Tarjimada biror bir soʻz turkumi boshqa bir soʻz turkumi bilan oʻzgartirilishi mumkin. Bu toʻliq yoki qisman transformatsiyalarga bogʻliqdir. Tarjima qilishda sifat, ot, feʼl va ravish bilan almashinishi mumkin. Amerika hayotidan quyidagi misolni keltirish mumkin:

*White schools – schools for white – oq tanlilar uchun maktablar; white churches – churches for white*⁵³.

Tarjima qilishda koʻp hollarda sifatlar ravishlar bilan almashtiriladi. Bu grammatik transformatsiyaning badiiy asar va publitsistika (ijtimoiy-siyosiy

⁵²Musayev Qudrat. Tarjima nazariyasi asoslar: Darslik. - T.: Oʻzbekiston Respublikasi FA “Fan” nashriyoti, 2005. - 320 b.

⁵³Gʻofurov I., Moʻminov O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi. – Toshkent: Tafakkur Boʻstoni, 2012. – B.137.

masalalarga oid adabiyot)da epitet (sifatlash) hodisaning mavjudligiga bog'liqdir. Misol uchun:

Lord Nesby stretched a careless hand. – Лорд Несби небрежно протянул руку. – *Lord Nesbi istar-istamay qo'lini cho'zdi.*

Ba'zan ingliz tilidagi ravish so'z turkumi boshqa bir so'z turkumi bilan o'zagrishi sodir bo'ladi. Misol uchun:

*The accusation has been disproved editorially. – Aybdorlik gazeta maqolasida oqlandi.*⁵⁴

Ingliz tilida gapda so'z tartibida dastlab bosh bo'laklar: ega va kesim, so'ngra esa 2-darajali bo'laklari keladi. Rus tilining akademik (oliy) gramamtikasida gapda so'z tartibi quyidagicha ko'rsatilgan: hol, kesim, ega; ingliz tilida buning aksi qabul qilingan. Misol uchun:

Yesterday's deal was considered in court. Xabarning boshi gapning oxirida bo'lishi lozim. Rus tilidagi gapda so'z tartibi turlicha bo'lishi mumkin.

Deal was considered in court yesterday. Berilgan gapning markazidagi "deal" (gapning egasi) gapning boshida bo'lishi lozim.

Bu gapni ingliz tiliga tarjima qilishda ingliz tilining qoidalariga ko'ra turli xil o'rin almashtirishdan foydalaniladi va gapni 2 ta sodda gapga ajratsa ham bo'ladi. Gapdagi so'zlar bir-biri bilan sintaktik bog'lanish orqali bog'langan. Ular 4 ta: predikativ (ega va kesim o'rtasida); to'ldiruvchi (kesim va to'ldiruvchi o'rtasida); aniqlovchi vazifasida keladigan (aniqlanmish va aniqlovchi o'rtasida); va hol vazifasini bajaradigan (hol va ergashgan so'z o'rtasida) so'zlar guruhi turli xil sintaktik bog'lanishlar orqali birikadi va u so'z birikmasi deb ataladi. So'z birikmasi qat'iy jumlar yoki ixtiyoriy so'zlardan tuzilishi mumkin. Dastlab ma'lum birikmani tarjima qilib olib so'ngra nutqning shaklini qo'shimcha (kelishik)larga moslab yangi bir birikmani hosil qilish lozim. So'zlarning birikish qoidasi turli xil tillarda turlichadir. Bunga har bir til dunyodagi narsa va hodisalarning o'zaro aloqasini turli xil usullarda tasvirlaydi deb izoh beriladi.

⁵⁴ G'ofurov I., Mo'minov O. Qambarov N. Tarjima nazariyasi. – Toshkent: Tafakkur Bo'stoni, 2012. – B.138.

Shuning uchun turg'un (erkin) birikmalarni tarjima qilish mushkul bo'lishi mumkin⁵⁵.

Biz yuqorida bir tildan boshqa tilga tarjima qilish davomida ko'pgina muammolarga duch kelish mumkinligini ko'rib o'tdik. Endi Jeyms Hedli Cheyzning "Seyfdagi pullar" asaridagi grammatik transformatsiyalarni topishga va uni tahlil qilishga harakat qilamiz.

Asliyatda:

*If I told him the night service had shut down, I would get the gate. The way I was fixed for money, that was a luxury I couldn't afford.*⁵⁶

Tarjimada:

*Bordi-yu, men tunggi xizmat allaqachon berkildi, desam, u holda ishim bilan xayrlashishimga to'g'ri keladi, mening moliyaviy tomondan qiynalganim hisobga olinsa, bu yo'l qo'yib bo'lmaydigan nojo'ya harakat bo'lar edi.*⁵⁷

Yuqorida berilgan ushbu misolda asliyatda ikkita ergashgan qo'shma gap shaklida bo'lgan asarning ushbu qismini mutarjim grammatik transformatsiyadan foydalanib, bitta ergashgan qo'shma gap shaklida tarjima qilgan.

Asliyatda:

*"How fast can you get a man to me? I'm in trouble with my safe."*⁵⁸

Tarjimada:

*Siz zudlikda biror kishini yubora olasizmi? Menda seyf bilan bog'liq muammo paydo bo'ldi*⁵⁹.

Asliyat hamda tarjimada berilgan gap bilan tanishib shunga guvoh bo'lishimiz mumkinki, mutarjim asliyatdagi birinchi gapni ona tiliga o'girayotganda grammatik transformatsiyaning so'z tushirib qoldirish turidan foydalangan hamda asliyatda foydalanilgan "a" noaniq atikli o'zbek tilida bo'lmaganligi tufayli, uning o'rnini bosa olishi mumkin bo'lgan "biror"

⁵⁵G'ofurov I., Mo'minov O. Qambarov N. Tarjima nazariyasi. – Toshkent: Tafakkur Bo'stoni, 2012. – B.138.

⁵⁶James Hadly Chase. "Come easy, go easy" first published in the UK in 1960. – P.3.

⁵⁷Jeyms Hedli Cheyz "Seyfdagi pullar". Toshkent: Yangi asr avlodi, 2013. – B.3

⁵⁸James Hadly Chase. "Come easy, go easy" first published in the UK in 1960. – P.4.

⁵⁹Jeyms Hedli Cheyz "Seyfdagi pullar". Toshkent: Yangi asr avlodi, 2013. – B.4.

olmoshidan foydalanilgan, ya'ni "a" noaniq artikli o'zbek tilidagi "biror" olmoshiga tarjimon tomonidan almashtirilgan..

Asliyatda:

*I dialed her number again, but she didn't answer.*⁶⁰

Tarjimada:

*Men uning raqamini yana bir marta terdim, ammo Jeyni go'shakni, hatto ko'tarmadi ham.*⁶¹

Biz grammatik muammolarni o'rganish va ularni tahlil qilish davomida bir qancha grammatik transformatsiyalar borligining guvohi bo'ldik. Yuqoridagi Hedli Cheyzning "Seyfdagi pullar" asaridan olingan ushbu parchada tarjimon tomonidan grammatik transformatsiyaning o'rin almashtirish, o'zgartirish kiritish, qo'shimcha qo'shish kabi turlaridan foydalanilganligiga guvoh bo'lamiz.

Asliyatda:

*I drove over to Ashley Arms in a mood of black depression.*⁶²

Tarjimada:

*Eski Armzgacha qovoq-tumshug'im osilib bordi.*⁶³

Bu gapning tarjimasidagi grammatik muammolar shulardan iboratki, bunda gap tartibi o'zgargan, qo'shimchalar tushishi ro'y bergan. Ayniqsa, ingliz tilidan o'zbek tiliga iboralarni moslashtirib tarjima qilish anchayin qiyin hisoblanadi. Ammo tarjimon Fathulla Namozov bu ishning uddasidan chiqa olgan.

Asliyatda:

*He told me I would find Mr. Cooper's apartment on the third floor.*⁶⁴

Tarjimada:

*Darbon menga janob Kuperning uyi uchinchi qavatda ekanligini aytdi.*⁶⁵

Ba'zan tarjima qilish jarayonida tarjimon tarjimasi chiroyli chiqishi va o'z tiliga tushunarli bo'lishi uchun moslashtirish maqsadida ko'chirma gaplarni o'zlashtirma gaplarga aylantirishga aylantiradi. Yuqoridagi gapda aynan

⁶⁰ James Hadly Chase. "Come easy, go easy" first published in the UK in 1960. P.5.

⁶¹ Jeyms Hedli Cheyz "Seyfdagi pullar". Toshkent: Yangi asr avlodi, 2013. – B.5.

⁶² James Hadly Chase. "Come easy, go easy" first published in the UK in 1960. P.6.

⁶³ Jeyms Hedli Cheyz "Seyfdagi pullar". Toshkent: Yangi asr avlodi, 2013. – B.6.

⁶⁴ James Hadly Chase. "Come easy, go easy" first published in the UK in 1960. P.7.

⁶⁵ Jeyms Hedli Cheyz "Seyfdagi pullar". Toshkent: Yangi asr avlodi, 2013. – B.7.

grammatik nomutanosiblik shundaki, asliyatdagi ko'chirma gap tarjimada o'zlashtirma gapga aylantirilgan.

Asliyatda:

*He opened the front door himself, and as soon as I stepped into the hall he began to yell at me for taking so long to get out there.*⁶⁶

Tarjimada:

*Eshikni Kuperning o'zi ochgan edi. Men ostonadan hatlab o'tganim hamon, u, qayerda buncha qolib ketding, deb baqira boshladi.*⁶⁷

Ba'zan tarjima qilish jarayonida qo'shma gap bir qancha soda gaplarga aylantirilishi mumkin. Yuqoridagi gapda grammayik transformatsiyaning mazkur turidan foydalanilganligiga guvoh bo'lamiz. Asliyatdagi qo'shma gap tarjimada sodda gap shaklida tarjima qilingan.

Asliyatda:

*He had a wash and a smoke.*⁶⁸

Tarjimada:

*U yuvindi va chekdi.*⁶⁹

Ingliz tilidagi "group verb predicate" deb ataluvchi kesim turlari tarjimada ma'lum murakkabliklar yaratadi. Ushbu turdagi kesim ko'p ishlatiladigan fe'llar (to have, to take, to give, to get va h.k.) birikmalaridan yasaladi. Yuqoridagi gap shunga misol bo'la oladi. Asliyatdagi "had" kesimi ham "wash", ham "smoke" so'zlariga birdek tegishlidir.

Gapning turli xildagi qayta qurilishlar muntazam ravishda ingliz tili gap strukturasi xususiyatlarini hisobga olishni talab etadi. Masalan, ingliz tilidagi gapda hol ko'pincha ko'chib turadi va tarjimon bundan unumli foydalanishi mumkin. Masalan,

Asliyatda:

*He is considered to be a good inspector.*⁷⁰

⁶⁶ James Hadly Chase. "Come easy, go easy" first published in the UK in 1960. P.8.

⁶⁷ Jeyms Hedli Cheyz "Seyfdagi pullar". Toshkent: Yangi asr avlodi, 2013. – B.8.

⁶⁸ James Hadly Chase. "Come easy, go easy" first published in the UK in 1960. P.2.

⁶⁹ Jeyms Hedli Cheyz "Seyfdagi pullar". Toshkent: Yangi asr avlodi, 2013. – B.2.

⁷⁰ James Hadly Chase. "Come easy, go easy" first published in the UK in 1960. P.4.

Tarjimada:

*Uni yaxshi inspector deb hisoblashadi.*⁷¹

Ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilishda ingliz tilidagi "It" olmoshi ba'zi qiyinchiliklar tug'diradi, chunki, "It" olmoshining vazifasi turlicha bo'lib hisoblanadi. Misol uchun: "It is known", "It seems", "It is essential" kabi shaxssiz gaplarda "ma'lumki", "muhammi", "ko'rinib turibdiki" kabi so'z birikmalari bilan tarjima qilinadi. Shuningdek, o'zbek tilida modal fe'llarning yo'qligi ham ingliz tilidan tarjima qilish davomida qiyinchilik tug'diradi. Masalan,

Asliyatda:

*I couldn't imagine Janey waiting for me that long.*⁷²

Tarjimada:

*U shuncha vaqt kutishi dargumon.*⁷³

Qolaversa, ushbu gap tarjimasida asliyatdagi "Jeyni" tarjimada "u" olmoshiga aylantirilgan.

Asliyatda:

*"How soon can you open it? Cooper demanded. "I'm in a hurry."*⁷⁴

Tarjimada:

*Seyfni ochish uchun qancha vaqt kerak? – deb so'radi janob Kuper. – Men shoshilyapman.*⁷⁵

Ushbu gapni ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilish jarayonida gap tartibi o'zgarganligi hamda predlog va artikl bilan bog'liq grammatik muammolarga duch kelinganligini ko'rishimiz mumkin. Asliyatdagi "I'm in a hurry" gapi mutarjim tomonidan "Men shoshilyapman" tarzida tarjima qilingan. Asliyatdagi "in" predlogi va "a" artikli tarjimaning g'aliz va tushunarsiz bo'lmasligi uchun berilmagan. Ushbu gap tarjimada ega va kesim tarzida berilgan.

Asliyatda:

⁷¹ Jeyms Hedli Cheyz "Seyfdagi pullar". Toshkent: Yangi asr avlodi, 2013 .4-bet.

⁷² James Hadly Chase. "Come easy, go easy" first published in the UK in 1960. P.8.

⁷³ Jeyms Hedli Cheyz "Seyfdagi pullar". Toshkent: Yangi asr avlodi, 2013. – B.8.

⁷⁴ James Hadly Chase. "Come easy, go easy" first published in the UK in 1960. P.32.

⁷⁵ Jeyms Hedli Cheyz "Seyfdagi pullar". Toshkent: Yangi asr avlodi, 2013. – B.32.

*He scribbled the combination down on a scrap of paper and gave it to me. Then he went over to the cellarette and began to fix himself a highball.*⁷⁶

Tarjimada:

*U bir parcha qog'ozga raqamlarni aji-buji qilib yozib, menga uzatdi, so'ng ichimliklar turgan pastak stolcha oldiga borib, o'ziga kokteyl tayyorlay boshladi.*⁷⁷

Ba'zan asliyatdagi sodda gaplar tarjimada qo'shma gap tarzida berilishi mumkin. Yuqoridagi gapda ham asliyatda ikkita sodda gap berilgan, tarjimada esa ikkita sodda gap tarjimon tomonid qo'shma gapga aylantirilgan.

Xulosa qilib aytganda, bir tilda yaratilgan asarni ikkinchi bir tilda tarjima qilish jarayonida turli mutanosibliklar va nomunatosibliklarga duch kelinadi, hamda ular tarjimonning bilim va mahorati orqali bartaraf etiladi. Ana shunday mahoratli tarjimon Fathulla Namozov Jeyms Hedli Cheyzning "Seyfdagi pullar" asarini tarjima qilgan. Tarjima qilibgina qolmay u kitobxonlarni hisobga olgan holda Grammatik transformatsiyaning barcha turlaridan umumli foydalangan. Natijada ushbu detektiv asarning tarjimasi aniq, tushunarli va qiziqarli bo'lishiga erishilgan.

⁷⁶ James Hadly Chase. "Come easy, go easy" first published in the UK in 1960. P.7.

⁷⁷ Jeyms Hedli Cheyz "Seyfdagi pullar". Toshkent: Yangi asr avlodi, 2013. – B.7.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, bir tilda yaratilgan asarni ikkinchi bir tilda tarjima qilish jarayonida turli mutanosibliklar va nomunatosibliklarga duch kelinadi, hamda ular tarjimonning bilim va mahorati orqali bartaraf etiladi.

Qolaversa, xorijiy tillarda bitilgan asarlarni o'zbek kitobxonlariga tanishtirish maqsadida tarjimashunoslik sohasida ulkan ishlar amalga oshirilgan hamda bunday sa'y-harakatlar yurtimizda so'nggi asrda jadal rivojlangan. Grammatik transformatsiyalar tushurib qoldirish, qo'shish, so'z tarkibini o'zgartirish, sodda gaplarni qo'shma gap shaklida, qo'shma gapni esa sodda gaplar shaklida tarjima qilish kabi turlarga bo'linadi. Tarjimashunoslikda eng muhim omil bir tilda yaratilgan asarlarni boshqa tilda qayta yaratishda leksik, grammatik va sintaktik transformatsiyalardan foydalangan holda asosiy ma'noni yetkazib berishga erishilgan. Ikki til tuzilishi va grammatikasidagi nomuvofiqliklar grammatik va leksik transformatsiyalardan foydalanishni taqozo etgan. Leksik va grammatik transformatsiyalar ham nasriy ham nazmiy asarlar tarjimasida qo'llanilgan.

Grammatik transformatsiyalar turli xil grammatik va leksik ko'rinishlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Ba'zi hollarda ular bir-biriga juda yaqin bog'liq va leksik-grammatik xarakterga ega bo'ladi.

Tarjimada biror bir so'z turkumi boshqa bir so'z turkumi bilan o'zgartirilishi mumkin. Bu to'liq yoki qisman transformatsiyalarga bog'liqdir. Tarjima qilishda sifat, ot, fe'l va ravish bilan almashinishi mumkin.

Tarjima qilishda ko'p hollarda sifatlar ravishlar bilan almashtiriladi. Bu grammatik transformatsiyaning badiiy asar va publitsistika (ijtimoiy-siyosiy masalalarga oid adabiyot)da epitet (sifatlash) hodisaning mavjudligiga bog'liqdir.

Yuqorida tahlil qilingan Hedli Cheyzning "Come easy, go easy", ya'ni o'zbek tarjimoni Fathulla Namozov tomonidan bevosita tarjima qilingan "Seyfdagi pullar" nomli asari o'zbek kitobxonlari o'rtasida chuqur obro' topdi.

Ushbu asarni detektiv asarlar orasida o'qishga arzigulik, ya'ni yosh kitobxonlarga tavsiya bersa bo'ladigan asar deb bimalol ayta olishimiz mumkin.

Hedli Cheyzning detektiv asarlari voqea tasvirlarini quyidagilarda ko'rishimiz mumkin. Voqealar, qahramonlar, ularning xarakterlari hikoyasi emin-erkin talqin qilinadi. Yana bir jihat bor, unda kuch ishlatish, zo'rlik qilish sahnalari roman to'qimasiga tabiiy mos tushadi, aksariyat romanlarning tuzilishi xususan, shahar hayotidagi ko'pgina narsalar o'z-o'zidan almashinishi, yumshoq hissiyot to'g'rirog'i, sentimentalizm, jo'rttaga ataylab qilingandek, biror qo'pollik yashirin shaklda botiniy taqdim etilgan. Aksariyat asarlarida Amerikadagi voqealar tasvirlangan. "Seyfdagi pullar" asarida ham buni yorqin ko'rishimiz mumkin.

Hozirgi adabiy jarayonning yorqin nomoyandalaridan biri bo'lmish, Hedli Cheyz asari tarjimasida grammatik transformatsiyalardan unumli foydalanilgan hamda asliyat g'oyaviy-badiiy mazmunining tarjimada to'la-to'kis qayta yaratilishiga erishilgan. Asliyat va tarjima tillari leksik va grammatik hodisalari o'rtasidagi uyg'un hamda tafovutli jihatlarini puxta o'zlashtirilgan holda, asliyatning shakl va mazmun birligini ona tili vositalari yordamida qayta yarata olgan tarjimon tarjimada ijodiy me'yorning buzilmasligiga, aniqlikka erishgan. Personajlar nutqida ifoda etilgan zaruriy-uslubiy ta'sirchanlikni yaratib berishda leksik va grammatik transformatsiyalardan foydalanish tarjimalarning muvaffaqiyatli bo'lishiga olib kelgan.

Biz ish yakunida shunday xulosalarga keldikki, ko'plab grammatik muammolar aynan grammatik bo'lmay, leksik muammolar bilan ham bog'liq. Shuning uchun ham ularni leksik-grammatik deb hisoblash o'rinliroq. Ushbu paragrafda tarjima jarayonida qiyinchilik tug'diruvchi so'z turkumlari bilan bog'liq savollar ko'rib chiqiladi.

Tarjimonlar shuni yodda tutishi kerakki, ingliz va o'zbek tillaridan otlardagi birlik va ko'plikning qo'llanilishi har doim ham mos kelavermaydi. Ba'zi mavhum otlar ingliz tilida konkret manoda ishlatilib, sanaladigan ot bo'lib, ko'plik shaklda ishlatiladi.

Ba'zan ingliz tilidagi birlik sondagi ot o'zbek tiliga ko'plikda bo'lishi mumkin.

Ingliz tilida every olmoshi birlik sondagi otlar bilan ishlatiladi. O'zbek tilida esa every (hamma) olmoshi ko'plik sondagi ot bilan ishlatiladi. Har bir tilda aniqlik va noaniqlik tushunchasi bor, ammo bu aniqlik va noaniqlik grammatik vositalar, yordamchi so'zlar, ya'ni artikllar bilan berilmaydi. Ingliz tilida esa artikl o'z o'rniga ega. O'zbek tilida artikl tushunchasi mavjud emas.

Yuqoridagilardan shuni ko'rishimiz mumkinki, ingliz tilidagi ayrim grammatik qoidalarining, ya'ni predlog, artiklning o'zbek tilida mavjud emasligi, ingliz tilida gap tartibining o'zbek tilidan farq qilishi va shu kabilar tarjima jarayonida turli qiyinchiliklarga sabab bo'ladi. Uni bartaraf etish esa, tarjimonning yutuqli tomoni hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Shavkat Mirziyoyev “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risidagi PQ-2909-son qarori. 2017.
2. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”. – T.: 2008.
3. Karimov I.A. “Barkamol avlod orzusi”. - T.: Sharq, NMK,1999,184 bet.
4. Allomalar, buyuk siymolar. - Toshkent: 1995, 1- kitob.- 48b.
5. Aznaurova E.S., Abdurahmonova X.I. va boshqalar. Translation theory and practice . -Toshkent: O’qituvchi,1989.
6. Barxudarov L.S. Язык и перевод.-Москва, 1978.
7. Collins Dictionary of English Language. – London; Glasgoe, 1999. –1690 p.
8. Dictionary of English Colloquial Idioms. - Wood F.T. and Hill R. –London: Papermark, 1990. – 384 p.
9. Dobrolyubov N. A.ning “Eneida” haqida maqolasi.
10. Esenboyev R. Tarjima san’ati. -Toshkent,1986.
- 11.G’afurov I., Mo’minov O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi. -T.: Tafakkur Bo’stoni, 2012.
- 12.G’aybulloh as-Salom. Tarjima nazariyasi va amaliyotidan ma’ruza matn chizgilari. -T.: 2003.
- 13.Hamidov X.X. Tarjimashunoslik fanidan ma’ruza matnlari. – Toshkent. 2012.
- 14.Hedli Cheyz “Seyfdagi pullar”. – T.: Yangi asr avlodi, 2013.
- 15.Hornby A.S. Oxford student’s dictionary of Content English. – Oxford: Oxford University press, 1984. – 769 p.
- 16.James Hadly Chase “Come easy, go easy”. - Amerika, 1960.
- 17.Komissarov V.N. Общая теория перевода.-М.,2003.
- 18.Musayev Q. Tarjima nazariyasi asoslar: Darslik. T.: O’zbekiston Respublikasi FA”Fan” nashriyoti, 2005.
- 19.Nazarov S., Nazarova F., Adizova N., Poltayeva D. English-Uzbek dictionary. – T.:VEKTOR-PRESS, 2009.
- 20.O’zbekistonda tarjimachilik. - T, O’ZSSR, “Fan” nashriyoti, 1988.

- 21.Salomov G'. Adabiy an'ana va badiiy tarjima.-T.: Fan, 1980.
22. Salomov G'. Tarjima nazariyasiga kirish. – Toshkent. 1978.
- 23.Salomov G'. Tarjima nazariyasiga kirish. O'qituvchi, T., 1978. B.149-150, 182
- 24.Shoir Normatova. Jahon adabiyoti. – Toshkent: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2008.
- 25.Sulaymonova D.A., Xamnova F.R. She'r va tarjima. Samarqand, 2009.
- 26.Svory T. The art of translation.-London,1957.
- 27.Tarjima san'ati. Maqolalar to'plami. - Toshkent, G'.G'ulomov nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1973.
- 28.Toshkent Davlat Sharqshunoslik instituti tarjimashunoslik fanidan ma'ruza matnlari. – Toshkent. 2012.
- 29.Turniyozov. N. O'zbek derivatologiyasining bugungi ahvoli va istiqbol taraqqiyoti haqida Til taraqqiyotining qonuniyatlari. – Samarqand: SamDChTI, 2009. – B-3.
- 30.Xudoyqulov A.E. Collection of lectures on the theory and practice of translation –Termiz: 2007.
- 31.www.ziyonet.uz
- 32.www.wikipedia.uz
- 33.http://www.elib.bsu.by/bitstream/123456789/46792/1/holevinskaya_2011_s_bornik7_tom2.pdf
- 34.<http://www.dissercat.com/content/metaforicheskoe-modelirovaniegendermoi-oppozitsii-v-russkom-yazyke>